

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘zbekiston Respublikasida advokatura

*5380100- huquqshunoslik bakalavr yo‘nalishida ta‘lim oluvchilar uchun
(Uslubiy qo‘llanma)*

*SamDU o‘quv-uslubiy Kengashining
2009 yil 17 fevralda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishi qarori
bilan (bayonnoma № 4) nashrga tavsiya etilgan.*

SAMARQAND - 2009

O‘zbekiston Respublikasida advokatura. Uslubiy qo‘llanma - Samarqand: SamDU nashri, 2009, 72 bet.

O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, fuqarolarning tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlaydigan konstitusiyaviy normani amalga oshirish maqsadida advokatura instituti faoliyat ko‘rsatadi. Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga hamda inson huquqlari va erkinliklarining samarali himoya qilinishini har tomonlama ta‘minlashda advokatura instituti muhim hisoblanadi.

Huquqiy va demokratik davlat qurish uchun adolatli va fuqarolik jamiyatning ozod, barcha ma‘naviy fazilatlari to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladigan kelajak fuqarosini qonunlarga amal qilish ruhida tarbiyalash lozim. Bu sohada advokatura xodimlari zimmasiga mas‘uliyatli vazifalar belgilangan..

Ushbu uslubiy qo‘llanma talabalarning O‘zbekiston Respublikasida advokatura organlari faoliyati bilan tanishishiga hamda boshlang‘ich bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lishiga imkonini yaratadi.

Tuzuvchilar:

***Sh.H.HAMRAYEVA
R.T.TO‘RAYEVA***

Mas‘ul muharrir

dotsent Sh.U.Umidullayev

Taqrizchilar:

***Amanullayev B.,
Qurbonov D.***

1- mavzu: «O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKATURA» FANINING TUSHUNCHASI VA TIZIMI

1.1. Ma’ruza topshiriqlar rejasi

Predmet:

O‘quv vaqti: 2 soat (ma’ruza); 2 soat (seminar mashg‘uloti).

Dars turi: ma’ruza; o‘tilgan mashg‘ulotlarni takrorlab, bilim ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Epigraf: *“Bugun inson huquqlari va erkinliklari, ularni har tomonlama himoyalash va ta’minlash, jamiyatni demokratlashtirish va erkinlashtirish yo‘llari haqida gapirar ekanmiz, bu mavzu dunyoda har doim ayniqsa, so‘nggi paytlarda eng o‘tkir va dolzarb masalaga aylanib borayotganini yaqqol kuzatish mumkin.”*

Karimov.I.A.

Ma’ruza rejasi:

•“O‘zbekiston Respublikasida advokatura” faninig tushunchasi, predmeti va metodi.

•O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatining tashkiliy asoslari.

•Advokatura tushunchasi va advokatning huquq va burchlari.

Darsning maqsadi: talabalarga O‘zbekiston Respublikasi advokatura faoliyatining rivojlanish bosqichlari haqida bilim berish, advokatlarning jamiyatimizdagi o‘rnini tushuntirish, ularni erkin fikrlashga, shu soha to‘g‘risidagi bilimlarini yuzaga chiqarish, fuqarolik jamiyatda advokatura institutining o‘rni haqidagi bilim ko‘nikmalarini hosil qilish.

Ilmiy mashg‘ulotning vazifasi:

•**O‘rgatuvchi:** ishtirokchilarning qatnashishini tashkil etish, yangi olingan bilimlarni takrorlash, talabalarning yuridik yordam olish, huquqiy kafolatlar to‘g‘risidagi fikrlarini rivojlantirish, predmet tarixi va uning alohida jihatlari, o‘quv fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi bilan tanishtirish.

•**Rivojlantiruvchi:** o‘quv darsligidan to‘g‘ri foydalanish, muhim qonun va qonun osti hujjatlari bilan ishlashni o‘rganish, advokaturaga oid me‘yoriy hujjatlarni ajrata bilish, tadqiq etish, shu sohaga oid yangi takliflar kiritish, olingan nazariy bilimni amaliyotga qo‘llash mahoratini rivojlantirish, talabalarda yurist kasb etikasi qoidalariga rioya etish usullarini shakllantirish hamda ularda notiqlik san’atini takomillashtirib borish.

•**Tarbiya beruvchi tomoni:** talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish, talabalarga qonun ustuvorligini yetkazish, O‘zbekiston Respublikasida

advokatura fani to'g'risida to'liq tushuncha berish, mavzuni talabalarga ravon, ular uchun sodda usulda tushuntirish, shaxsda himoya institutlari to'g'risidagi bilimlarini yuzaga chiqarish, qonun oldidagi burchlaridan kelib chiqib, ularda javobgarlik his-tuyg'ularini tarbiyalash.

O'rganish texnologiyasi

- **O'qitish usullari;** ma'ruza, aqliy hujum, klaster, popuk, usullaridan foydalanish, jonli muloqot, yuridik atamalarga izohlar berish;

- **o'rganish turlari:**og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy, oldindan;

- **o'rganish yo'nalishlari:** ma'ruza matni, advokaturaga oid qonunlar majmuasi, slaydlar;

- **o'rganish talablari:** auditoriya texnik yoritgichlari bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish;

- **monitoring va baholash:** og'zaki nazorat, savol-javoblar, blis-so'rov.

Pedagogik vazifalar:

- O'quv jarayonida fanning ahamiyati va uning o'rnini bilan tanishtirish;

- O'quv fanining tuzilishi va tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti to'g'risida tushuntirishlar berish;

- Predmet sohasida ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli; o'qitish jarayonini tashkillashtirish jarayonining umumiy sxemasini tasniflash;

- O'qitish jarayonini umumiy tasniflash;

- O'qitish texnologiyasini rivojlantirish istiqbollari tasniflash.

O'quv faoliyati natijalari:

- Fanning nomlanishi va vazifasini belgilash;

- Faoliyatdagi alohida usuli va tashkiliy jihatlari ochib berish;

- O'quv fanining umumiy va tashkiliy tuzilishlari to'g'risida atroflicha tushuntirish berish;

- Advokatura fanining asosiy tushunchalarini, fanning asosiy yonalishini beradi;

- Nazariy bilimlarning t o'raligi, tizimlilik, amaliyligi;

- Amaliy topshiriqlarni bajarishda o'rganilgan tushunchalardan foydalana olish;
- Kursning asosiy mazmunli yo'nalishi bo'yicha ularni boshlangich bilimlariga ega bo'lishi.

1.2.Ma'ruzaning xronologik kartasi

1-bosqich;O'quv mashg'ulotlariga kirish (15 daqiqa)

•**O'qituvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli manbalar berish, ma'ruza haqida tushuntirish berish, o'quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlar to'g'risida ma'lumot berish, dars davomida talabalar bilimini baholab borish usullari haqida tushuntirishlar berish;

•**talabaning faoliyati:** darsga tayyorgarligi, ma'ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar bilan tanishishi (talabalar soni, tashqi ko'rinishi, o'quv qo'llanmalar va qurollar);

•

•**uslublar, shakllar, usullar;** yuriqnoma, oldindan so'rash, topshiriq kartochkalari.

2-bosqich. Asosiy qism (55 daqiqa)

• **Qqituvchi faoliyati:** mavzuga kirish, o'tgan mavzularni yodga olish, ma'ru'za matnini tarqatish, uni yaxshi o'zlashtirib olishni taklif qilish, mavzu rejalarining har biriga alohida tushuntirish berish, aqliy hujum, klaster, popuk, usullaridan foydalanish, jonli muloqot, yuridik atamalarga izohlar berish, slaydlar orqali atroflicha tushuntirib berish va ma'ruza matnini o'qish;

• **talabaning faoliyati:** bilimlarini mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, tushunmagan iboralar bo'yicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlilini qilish;

• **uslublar, shakllar, usullar;** oldindan s o'rash, blis-s o'rov, akliy hujum, "Insert"uslubidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

• **o'qituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash, talabalar fikrini asosiy mavzuga qaratish, dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan faol talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash;

• **talabaning faoliyati:** ishni tahlil qilish, dars jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilash, mustaqil ish mavzusini yozib olish;

uslublar, shakllar, usullar: guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1.3. O‘quv –uslubiy materiallar

Ma’ruza rejasi:

• “O‘zbekiston Respublikasida advokatura” fanining tushunchasi, predmeti va metodi.

• O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatining tashkiliy asoslari.

• Advokatura tushunchasi, advokatning huquq va burchlari.

Tayanch iboralar: huquqiy xarakterdagi fan, konstitutsiyaviy huquqlar, huquqiy institut, demokratik fuqarolik jamiyat, malakali yuridik yordam olish, himoyaga chaqiraman, qonunlarning ustunligi, mustaqillik, demokratik, advokatlik faoliyatining turlari, insonparvarlik, qonuniylik, himoya pozitsiyasida qolish, advokat yordamchisi.

1.3.1. Ma’ruza matni

O‘zbekiston Respublikasida advokatura fanining tushunchasi, predmeti. O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, fuqarolarning tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlaydigan konstitutsiyaviy normani amalga oshirish maqsadida advokatura instituti faoliyat ko‘rsatadi. Shuningdek, advokatura institutlari fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga hamda inson huquqlari va erkinliklarining samarali himoya qilinishini har tomonlama ta’minlashda muhim institut bo‘lib, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimida muhim va mas’uliyatli rol o‘ynaydi. Prezidentimiz Islom Karimovning **“Sud jarayonida ayblov va himoyaning amalda tengligi ta’minlanmog‘i va buning uchun advokatura idoralarining mavqeini ko‘tarish darkor»¹** degan so‘zlarini alohida ta’kidlashni o‘rinli deb hisoblaymiz:

Advokaturaning erkinligi shu institutning talabi va unga yuklangan vazifalarga obyektiv bog‘liqdir. Biz yaxshi bilamizki, barcha odil sudlov organlari tizimining asosiy vazifasi jinoyatchilikka yoki umuman huquqbuzarlikka qarshi kurash emas, balki jamiyatni va alohida individlarni huquq va manfaatlarining buzilishidan, shuningdek, aybsiz shaxslarni davlat ta’qibidan himoya qilish hisoblanadi. 2000 yil 25 oktyabrda Yevropa Kengashining Ministrlar Kengashi tomonidan qabul qilingan “Advokatlik kasbini bajarish erkinligi haqida”gi tavsiyalari “Advokatlarning uyushmalari va yuristlarning boshqa kasbiy uyushmalari hokimiyat organlari va jamoatchilikdan ajratilgan holda o‘zini-o‘zi boshqaruvchi tashkilotlar bo‘lishi lozim”²ligi aniq belgilab qo‘yilganida ham chuqur ramziy ma’no mujassamdir.

¹ Қаранг: Адвокатура журналі № 1, 2000 йил муқовада ёзилган сўзлардан фойдаланилди.

² Қаранг: Азизов И.Б. «Адвокатуранинг ташкилий тузилиши тамойиллари». -Тошкент, 2002 йил. 225 -бет.

Advokatura va advokatlar mustaqil, ma'naviy, moddiy tomondan erkin bo'lishi lozim. Eng asosiysi, institusional erkin bo'lishi, ya'ni advokatura tizimining advokatlikka taalluqli bo'lmagan hech bir idorasiga bo'ysunmasligi kerak. Chunki institusional mustaqillik doirasida har bir advokatning erkinligi prinsipial darajada muhim hisoblanadi. Advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, qabul qilingan qonunlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik xizmat ko'rsatadigan tashkilot deb belgilab qo'yilgan.

Advokaturaning vazifasi davlat hokimiyatining ayrim vakillari tomonidan fuqarolarning huquq va manfaatlari buzilishi hollariga qarshi turib huquqiy normalar orqali himoyachi vazifasini bajaradi. Advokatura davlat va fuqarolar o'rtasida o'ziga xos to'siq vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham advokat o'z kasbiy faoliyatida faqat qonunga va mijoz manfaatlariga xizmat qiladi. Bugun mustaqil diyorumizda ko'plab yangi qonunlar qabul qilinib, xalqaro huquq normalariga moslashgan huquq me'yorlarini yanada takomillashib kelayotgani barchani quvontiradi. Xuddi shunday xalqaro huquqlardan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-modda 1-bandida ham aynan himoyaga bo'lgan huquqlar haqida quyidagilar belgilab qo'yilgan: "Jinoyat sodir etishda ayblanayotgan har bir inson unga himoya barcha imkoniyatlar yaratib berilib, sud majlisida oshkora tartibda qonuniy yo'l bilan uning aybdorligi aniqlanmaguncha, aybsiz deb hisoblanish huquqiga egadir"³ - deb ko'rsatilgan.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksining 23-moddasida ham "Aybsizlik prezumpsiyasi" to'g'risida "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari bo'lmasa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.⁴

³ Қаранг: Адвокат журнали № 4 (13) 2002 й. 18-бет. Т.Сайидов. Омбудсманнинг Бухоро вилояти бўйича минтакавий вакили «Ҳимоя ҳуқуқини таъминловчи қонунларни қўллаш» амалиёти.

⁴ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. -Тошкент, 2001 Адлия Вазирлиги, 13-бет. 23-модда.

“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro pakt”ning 14-moddasi, 3-qismi “v”bandida esa, «O‘z himoyasini tayyorlash uchun va o‘zi tanlab olgan oqlovchi bilan muloqotda bo‘lish uchun yetarlicha vaqt va imkoniyatga ega bo‘lish” haqidagi huquqiy kafolatning belgilab qo‘yilishi fikrimizning dalilidir. O‘zbekiston Respublikasining 13-moddasida ham “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi”deb alohida e’tirof qilinadi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatining tashkiliy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan oq, Bosh Qomusimiz-mustaqillik Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bosh qomusimizning har bir bo‘lim va moddalarida inson uning huquq va erkinligi hamda manfaatlari oliy qadriyat ekanligi va davlat insonlarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishda bosh himoyachi ekanligi alohida kafolatlanib qo‘yildi. Ayniqsa, 1996-yil 27- dekabrda “Advokatura to‘g‘risida”⁵gi O‘zbekiston Respublikasining qonunining qabul qilinishi, advokatura idoralari hamda advokatlarning haq-huquqlarini qonun bilan belgilab beradi.

Advokatura to‘g‘risidagi ushbu qonunda advokatura – bu huquqiy institut bo‘lib, u advokatlik bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga olib, O‘zbekiston Respublikasining advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va boshqa qonun hujjatlaridan iboratligi ta’kidlangan. Mazkur qonunda advokaturaning muhim ijtimoiy vazifalari ham belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular:

- aholiga sifatli huquqiy yordam ko‘rsatish; huquqiy yordam ko‘rsatishda, ayniqsa, fuqaroviy-huquqiy muammoda advokatning o‘rni;
- to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lmagan fuqarolarga bepul huquqiy yordam berish;

Advokatura o‘z faoliyatini quyidagi ya’ni, qonunlarning ustunligi, mustaqillik hamda demokratik prinsiplar asosida faoliyat olib borishi belgilab berildi.

⁵ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, 2-сон, 48-моддаси.

Advokatlik faoliyatining turlari ham mavjud bo'lib ular-huquqiy masalalar bo'yicha masalalar,tushuntirishlar, qonun hujjatlari yuzasidan yuzaki va yozma ma'lumotnomalar berish:

- huquqiy xususiyatdagi arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuzish; fuqarolik ishlari va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudda, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshirish;

- jinoiy ishlar bo'yicha dastlabki tergovda va sudda himoyachi, jabrlanuvchi vakili, fuqaroviy da'volar, fuqaroviy javobgar shaxs sifatida ishtirok etish; tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko'rsatish hamda qonun hujjatlarida man etilmagan boshqa turdagi yuridik yordam ham ko'rsatish mumkin (5-modda).

Shuningdek, "Advokatura to'g'risida"gi qonunda advokatlik faoliyatining kafolatlari jumladan, uning kasbga oid huquqlari, sha'ni va qadr-qimmati qonun bilan qo'riqlanishi, kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma'lumotlarni oshkor etilishini talab qilmaslik, advokat o'z kasbiy vazifasini bajarayotganida unga ta'sir ko'rsatmasligi uni guvoh sifatida so'roq qilinmasligi, undan ishga taalluqli daliliy ashyolarni olib qo'yilmasligi, huquqiy yordam ko'rsatayotgan shaxslar bilan uchrashishni taqiqlamaslik hamda advokat qonunga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatayotganligi munosabati bilan uni jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish kabi qo'rqitishlar qat'iyan ma'n etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o'z vakolati doirasida quyidagilarga egadir:

advokatlarning malakasini oshirishda, advokatlar faoliyati haqida statistik ma'lumotlarni yuritadi, uslubiy yordam ko'rsatadilar; advokatlarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq tarzdagi ta'qiblardan himoya qiladi; advokatlik byurolar, firmalari, hay'atlari va Oliy Malaka komissiyasi faoliyatiga yordam beradi (17-modda).

"Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni haqida ham to'xtalib, ushbu qonunga asosan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi to'g'risida, ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar shug'ullanish huquqi kafolatlangan.

Mazkur qonunda ham advokatlik faoliyatining quyidagi prinsiplarga amal qilgan holda olib borish ta'kidlangan. Ular: advokatning mustaqilligi; kasb etikasi, advokatlik siri va qasamyodiga qat'i rioya etish, qonun hujjatlarida man etilmagan usullar va vositalarni qo'llash.

Yana ushbu qonunning ahamiyati shundaki, advokatning daxlsizligi ham himoyalangan, unda:

advokatning shaxsi daxlsizligi; uy-joyiga, xizmat xonasiga foydalanishdagi transport va aloqa vositalariga, xat-xabarlariga, unga tegishli bo'lgan ashyolar va hujjatlari ham taalluqlidir.

Advokatga ish bo'yicha huquqiy nuqtai nazardan, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, shuningdek, sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emas. Advokatga nisbatan faqat O'zbekiston Respublikasi prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atishi mumkin(6 modda).

Advokatlik faoliyati himoyasi davlat tomonidan ta'minlanadi, ya'ni:

- kasbiy vazifalarini bajarish imkoniyati;
- O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisidagi fuqarolarga yuridik yordam va maslahatlar berishi mumkin;
- o'z kasbiy vazifalarini bajarish tufayli yuzaga keladigan xavf-xatar yuzaga kelganda zarur darajadagi himoya (8-modda).

Shuningdek, ushbu qonunda advokatura o'z faoliyatini o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirish, advokatura shtatlari, mansab okladlari va ma'muriy-xo'jalik xarajatlarining smetalari moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazmasligi lozimligi, ularning ish haqi fondi banklar tomonidan nazorat qilinmasligi alohida ta'kidlangan (11-modda).

Shuningdek, bu qonunning 12-moddasida "Davlat bilan advokatura o'rtasidagi o'zaro munosabatlar" quyidagicha belgilanib berilgan:

- davlat har bir fuqaroning teng va erkin yuridik yordam olish huquqini ta'minlash uchun advokatura bilan hamkorlik qiladi; advokatura manfaatlariga daxldor masalalar davlat organlari tomonidan respublika advokatlar palatasi tartibida hal etadi;

- davlat advokaturani fuqarolar murojaat etish uchun qulay bo'lgan joylarda zarur binolar bilan belgilangan tartibda ta'minlaydi; advokaturaga kommunal xizmatlar, aloqa xizmatlari haqini to'lash bo'yicha imtiyozlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda boshqa imtiyozlar berilishi mumkin (12-modda).

1.3. Advokatura tushunchasi -advokatning huquq va burchlari

Advokatlik faoliyatining huquqiy asoslaridan biri bu advokaturani tashkil qilishning asosiy konseptual tamoyili-bu advokatning mustaqilligi hisoblanadi. Advokat o'zining shaxsiy advokatini tashkil qiladimi yoki advokatlik faoliyatini qaysi shakliga yollanadi o'zi mustaqil hal qilish huquqiga egadir.

Advokatlik firmalari haqida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bu firmalar va advokatlik maslahatxonalarini jamaviy advokatlik tashkilotlarining yagona shakliga aylantiradi. Advokatlik firmalari to‘liq yoki cheklangan hamkorlik shaklida ta‘sis etiladi. Agar advokatlik firmalarida hamkorlik tartibida ish yuritish haqida shartnoma mavjud bo‘lsa, firmaning ruxsati bilan mijozlar bilan munosabatlarga kirishadilar, ya‘ni ular yakka tartibda olgan gonorarlar firmaga kelib tushadi va keyinchalik firma nizomiga muvofiq taqsimlanadi.

Advokatlik maslahatxonalarini –bu advokatlarning hududiy kollegiyasi tomonidan, ya‘ni hudud advokatlari qarori bilan ta‘sis etiladigan tuzilmadir. Advokatlik maslahatxonalar asosan advokatlik yordami bilan yaxshi ta‘minlanmagan joylarda aholining ehtiyojini qondirish maqsadida tuziladi. Ushbu huquqiy maslahatxonalarining asosiy qismi soddalashtirilgan tartibda firma shaklida qayta ro‘yxatdan o‘tishi yoki advokatlik maslahatxonalarini shaklida qayta tuzilishi lozim bo‘ladi.

Advokatura to‘g‘risidagi qonunning 6-moddasida **Advokatlarning huquqlari** quyidagi tartibda belgilangan:

- tegishli masalalarni hal etishga vakolatli bo‘lgan barcha organlar, korxonalar, tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning topshirig‘iga muvofiq ularning manfaatlarini ifoda etish va huquqlarini himoya qilishi; sudlarda, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqayotgan organlar dalil sifatida foydalanilishi zarur bo‘lgan faktlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash;

- yuridik yordam ko‘rsatilishi munosabati bilan davlat organlaridan korxonalar, muassasalardan zarur bo‘lgan ma‘lumotnomalar, tavsiyanomalar va boshqa hujjatlarni so‘rab olish; zarur bo‘lgan masalalar yuzasidan ekspertlar xulosalarini mutaxassislarining ma‘lumotnoma – maslahatlarini mijozning roziligi bilan so‘rash va yozma tarzda olish;

- uning himoyasida bo‘lgan shaxsga nisbatan ish yuritayotgan sudga va boshqa davlat organlariga to‘plangan materiallarini taqdim etish; mansabdor shaxslarga iltimosnoma va shikoyat berish hamda ulardan yozma tarzda dalil-isbotli javob va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarning bajarilishi qonun bilan kafolatlangan (6-modda).

Advokatlarning davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha barcha nafaqa turlarini olish huquqidan foydalanadilar. Davlat ijtimoiy sug‘urtasiga badallar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdorda to‘lanadi. Advokatlik byuro, firmalar, ha‘yatlari mablag‘lari hisobidan advokatlarning ijtimoiy ehtiyojlarini qoplash uchun fondlar tuzishlari mumkin (12-modda).

Advokat so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib “advokatus”- yordamga chaqirmoq ma‘nosini anglatadi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining ma‘lum bir

bosqichida davlat va huquq, davlat boshqaruv idoralari va sud hokimiyati paydo bo'lishi bilan birga advokatlik kasbi ham qaror topgan. Eramizdan avvalgi I va eramizning I-II asrlarida qadimgi Rimda huquq ilmi va notiqlik san'atini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan Mark Tumliy Sitseron, Verris Gay, Valeriy Triariy Publiy, Kvinskiy Lusiy kabi mashhur advokatlar yashaganlar. Shuningdek, A.Temur davlatchiligi davrida XIV-XV asrlarda ham advokatlik kasbi alohida qadrlangan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual Kodeksining 49-moddasida himoyachining vakolatlari, 50-moddasida, himoyachini taklif etish tartiblari, himoyachining ishda ishtirok etish qoidalari, advokat mehnatiga haq to'lanishi haqida belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining JP Kodeksining 51-moddasida "Himoyachi ishtirok etish shart bo'lgan hollar," ya'ni:

- voyaga yetmaganlarning ishi bo'yicha; soqovlar, karlar, ko'rlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy kasalligi sababli o'zini-o'zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan shaxslarning ishi bo'yicha;

- sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo'yicha; jazo chorasi sifatida o'lim jazosi tayinlanish mumkin bo'lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishi bo'yicha;

- davlat ayblovchisi yoki jamoat ayblovchisi ishtirok etayotgan ishlar bo'yicha jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etayotgan ishlarda;

- tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarda himoyachining ishtiroki.

Bundan tashqari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishining murakkabligi va boshqa holatlarida ayblanuvchi, gumon qilinuvchining o'z haq-huquqlarini himoya qilishdagi qiyinchilikni his qilsa ham himoyachining ishtirok etishini shart deb topishga haqlidir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining JP Kodeksining 52-moddasida himoyachidan voz kechish qoidalari, 53-moddasida esa himoyachining huquq va majburiyatlari xususidagi harakatlar qonun bilan belgilab berilgan.

1.3.2-a Blis-so'rov bo'yicha savollar

1.O'zbekiston Respublikasida advokatura va uning vazifalari nimalardan iborat ?

2.Advokatura fanining boshqa yuridik fanlar bilan aloqadorligi nimada ?

3.Advokat so'zining ma'nosi qanday izohlanadi ?

4. O'zbekiston Respublikasining advokatura to'g'risidagi qonun hujjatlari haqida nimalar bilasiz ?

5. Advokatlik faoliyatining qanday turlarini bilasiz ?
6. Advokatning huquq va burchlari nimalardan iborat ?
7. Kimlar advokat bo'lishi mumkin ?
8. Advokatlarning jamiyatda tutgan o'rnini qanday bo'lishini istaysiz ?

1.3.2-b. Og'zaki nazorat uchun savollar

1. Advokatura institutining huquqiy asoslari nimalardan iborat ?
2. Advokatlik siri nimalardan iborat ?
3. Advokatlar qachondan boshlab huquqiy himoyani boshlashadi ?
4. Yordamchi advokatlar vazifalari nimalardan iborat ?
5. Advokatlar o'z faoliyatida qaysi tamoyillarga asoslanadilar ?
6. Advokatlarda kasb etika qoidalaridan qaysilarini juda muhim deb bilasiz ?

1.3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

- **Takrorlash va mashqlar:** qaytarish, o'z-o'zini tekshirish-tahlil, qayta tayyorgarlik ko'rish, eslab qolish;
- **Yangi materiallarning mustaqil asosi:** yangi adabiyotlar, Internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar tuzish.
- **Ilmiy xarakterdagi ishlar:** muammoli vaziyatlar, testlar, savollar, topshiriq va slaydlarni tuzish.

1.3.4. Topshiriq kartochkalari uchun testlar

1. Advokatura institutining asosiy yo'nalishlari:

- A) huquqiy institut, mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalar, yuridik yordam berish, huquqiy himoya.
- B) tijorat, siyosiy, davlat buyurtmalarini bajaruchi institut, himoya pozitsiyasini bajaradi.
- C) statistik ma'lumot to'plash, fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatish.
- D) ajnabiy fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatish, nogironlarning huquqlarini himoya qilish.

2. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatining tashkiliy asoslari:

- A) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Advokatlik

faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari.

B) “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi advokatlar kasb etikasi qoidalari, “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi.

C) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yo‘riqnomalari, Mehnat huquqi Kodeksi.

D) O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, Mehnat huquqi Kodeksi; “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.

3.Advokat so‘zining ma’nosi:

A) yordamga chaqirmoq, himoyamga olaman, huquqiy yordam ko‘rsatish.

B) huquqiy yordam ko‘rsatish, moliyaviy yordam ko‘rsatish.

C)xizmatimni taklif qilaman, siyosiy g‘amxo‘rlik qilaman.

D) yordamga chaqirmoq, tijorat xizmati taklif qilaman, huquqiy yordam ko‘rsatish;

4.Advokatning huquq va burchlari:

A) dastlabki tergov va sud jarayonida ishtirk etish, himoyasida bo‘lgan shaxsga nisbatan ish ko‘rayotgan sudga materiallar taqdim etish.

B) mansabdor shaxslarga iltimosnoma va shikoyat berish hamda javob olish.

C)yuridik yordam ko‘rsatilishi munosabati bilan tegishli korxonalar va idoralardan tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni so‘rash.

D) barcha javoblar to‘g‘ri.

5. O‘quv fanining boshqa yuridik fanlar bilan aloqasi:

A) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat prosessual huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik prosessual huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy huquqi.

B) O‘zbekiston Respublikasi Xo‘jalik huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Oila huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq huquqi.

C) O‘zbekiston Respublikasi Oila huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq huquqi, San‘atshunoslik fani.

D) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat prosessual huquqi, Mexanika-matematika, iqtisodiyot fani.

1.3.6. Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. **Karimov I.A.** “Adolat – qonun ustuvorligida”. 2001 yil 30 avgust.

2. **Karimov I.A.** Inson, uning huquqlari va erkinliklari, manfaatlari – oliy qadriyat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 13 yilligiga bag‘ishlangan tantanali ma’rosimda qilgan ma’ruzasi. 10- dekabr 2005-yil

3. O‘zbekiston Respublikasida Advokatlik faoliyati. Darslik. Ikki jildli, mualliflar jamoasi. «Konsaudininform» nashri, -T 2007.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni. T.; 1996 26- dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi «Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy huquqlari to‘g‘risida»gi qonuni, T.; 26- dekabr 1997

Qo‘shimcha adabiyotlar

6. **Рустамбаев М.Х., Никифорова Е.Н.** Правоохранительные органы. Учебник – Т.: ТДЮИ, 2003 г.

7. **Salomov B.** O‘zbekistonda advokatlik faoliyati. -T.; «Adolat», 2000.

8. Уголовный процесс. Общая часть (под общей редакцией доц.Никифоровой Е.Н.) Т.: «Адолат», 2000 г.

9. **Sharofiddinov A.O.** Eng muhim-himoya huquqi. Advokat jurnali, 2003, №2 **To‘laganova G.** Jinoyat protsessida himoyachining ishtiroki. O‘quv qo‘llanma. T.; TDYuI, 2005.

1.3.7. Internet manbalari

1. <http://www.zakon.ru>

2. <http://www.narod.ru>

3. <http://www.advokat.ru>

4. <http://www.msal.ru>

1.4. O‘qitishning uslubiy qoidalar

1.4.1. Aqliy hujum

“Aqliy hujum” uslubi universal qo‘llanish xarakteriga ega. “Aqliy hujum” uslubining vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi-yangi g‘oyalarni yaratishdir. “Aqliy hujum” uslubi muammoni hal qilayotgan kishilarning ko‘proq aql bovar qilmaydigan va hatto fantastik g‘oyalarni yaratishga undaydi. G‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa, ularning hech bo‘lmaganda bittasi ayni muddao bo‘lishi mumkin. Bu “aqliy hujum” orqali o‘tkazilgan dars negizidagi tamoyildir.

“Aqliy hujum”ning qoidalari

- fikr hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim;
- har qanday g‘oyani aytish mumkin;
- g‘oyalarga tushuntirish berilmaydi, vazifaga bevosita bog‘liq holda aytiladi;
- takliflar berish oxiriga yetmaguncha aytilgan g‘oyalarni tanqid yoki muhokama qilishga yo‘l qo‘yilmaydi;
- barcha aytilgan fikrlar yozib boriladi.
- “aqliy hujum” uslubi to‘xtatilgandan so‘ng barcha aytilgan g‘oyalar muhokama qilinib, eng maqbuli tanlanadi.
- “aqliy hujum” usuli yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalar faolligini oshirishga, charchoqni yo‘qotishga, g‘oyani izlashga sharoit yaratadi.

1.4.2. Kichik guruhlarda ishlash

- Har bir talaba o‘z o‘rtog‘i fikrini eshitishi, hurmat va xushmuomalada bo‘lishi;
- Har bir talaba faol ishtirok etishi, berilgan topshiriqqa nisbatan mas‘uliyatli va javobgarlikni his qilishi lozim;
- Har kimga yordam ko‘rsatish kerak, qaysikim u yordamga muhtoj bo‘lsa;
- Guruh ishiga baho berish jarayonida har bir talaba faol ishtirok etishi lozim.
- O‘zgaga yordam berib o‘zimiz ham o‘rganishimiz mumkinligini har bir oquvchi- talaba bilishi kerak.(birgalikda bajaramiz yoki hammamiz yutqazamiz)

2-mavzu: JINOYAT PROTSESSIDA ADVOKAT FAOLIYATI

1.1. Ma'ruza topshiriqlar rejasi

O'quv vaqti: 2 soat (ma'ruza); 2 soat (seminar mashg'uloti).

Dars turi: ma'ruza; o'tilgan mashg'ulotlarni takrorlab, bilim ko'nikmalarini mustahkamlash.

Epigraf: "Endilikda inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi". **Karimov I.A.**

Ma'ruza rejasi:

Reja:

- Advokatlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.
- Advokatning ish materiallari bilan tanishishi va mijoz bilan suhbatini
- Advokatning mijoz bilan munosabati.

Darsning maqsadi: talabalarga advokatlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida bilim berish, sudlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishini tushuntirish, advokatning ish materiallari bilan tanishish jarayoni va sud muzokarasidan oldin mijoz bilan suhbatini doirasidagi bilim ko'nikmalarini hosil qilish.

Ilmiy mashg'ulotning vazifasi:

• **o'rgatuvchi:** ishtirokchilarning qatnashishini tashkil etish, yangi olingan bilimlarni takrorlash, talabalarda yuridik yordam olish, huquqiy kafolatlar to'g'risidagi fikrlarini rivojlantirish, predmet tarixi va uning alohida jihatlari, o'quv fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi bilan tanishtirish.

• **rivojlantiruvchi:** o'quv darsligidan to'g'ri foydalanish, muhim qonun va qonun osti hujjatlari bilan ishlashni o'rganish, advokaturaga oid me'yoriy hujjatlarni ajrata bilish, tadqiq etish, shu sohaga oid yangi takliflar kiritish, olingan nazariy bilimni amaliyotga qo'llash mahoratini rivojlantirish, talabalarda advokatlarning jinoyat jarayonidagi huquqiy pozitsiyalariga rioya etish usullarini shakllantirish hamda ularda notiqlik san'atini takomillashtirib borish.

Tarbiya beruvchi tomoni: --talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish, O'zbekiston Respublikasi sud jarayonlarida advokatlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, advokatning ish materiallari bilan tanishishi va mijoz bilan suhbatini, mijoz bilan munosabati to'g'risida to'liq tushuncha berish, mavzuni

talabalarga tushunarli, ular uchun eng oson usulda tushuntirish orqali shaxsda qonun ustuvorligi, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklarini himoya qilish his-tuyg'ularini tarbiyalash.

O'rganish texnologiyasi

• **o'qitish usullari;** ma'ruza, aqliy hujum, klaster, popuk, B/B/B/ jadval usullaridan foydalanish, jonli muloqot, yuridik atamalarga izohlar berish.

• **o'rganish turlari:**og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy, tarqatma materiallar orqali mavzuni tushuntirish.

• **o'rganish yo'nalishlari:** ma'ruza matni, advokaturaga oid qonunlar majmuasi, advokatlarning jinoyat jarayonidagi ishtiroki tushirilgan slaydlardan foydalanish.

• **o'rganish talablari:** auditoriya texnik yoritgichlari bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish.

• **monitoring va baholash:** og'zaki nazorat, savol-javoblar, blis-so'rov.

Pedagogik vazifalar:

• O'quv jarayonida fanning ahamiyati va uning o'rnini bilan tanishtirish,

• O'quv fanining tuzilishi va tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti to'g'risida tushuntirishlar berish:

• Fan sohasida ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli; o'qitish jarayonini tashkillashtirish, jarayonning umumiy sxemasini tasniflash;

• O'qitish jarayonning umumiy tasniflash;

• O'qitish texnologiyasini rivojlantirish istiqbollari tasniflash.

O'quv faoliyati natijalari:

• Fanning nomlanishi va vazifasini belgilash;

• Faoliyatdagi alohida usuli va tashkiliy jihatlari ochib berish;

• O'quv fanining umumiy va tashkiliy tuzilishlari to'g'risida atroflicha tushuntirish berish;

• Advokatlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, advokatning ish materiallari bilan tanishishi va mijoz bilan suhbatini kabi asosiy tushunchalarini, fanning asosiy yunalishini beradi;

- Nazariy bilimlarning to‘laligi, tizimliliigi, amaliyligi;
- Amaliy topshiriqlarni bajarishda o‘rganilgan tushunchalardan foydalana olish;
- Kursning asosiy mazmunli yo‘nalishi bo‘yicha ularni boshlang‘ich bilimlariga ega bo‘lishi.

1.2.Ma’ruzaning xronologik kartasi

1-bosqich.O‘quv mashg‘ulotlariga kirish (15 daqiqa)

• **o‘qituvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli manbalar berish, ma’ruza haqida tushuntirish berish, o‘quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlari to‘g‘risida ma’lumot berish, dars davomida talabalar bilimini baholab borish usullari haqida tushuntirishlar berish;

• **talabanning faoliyati:** darsga tayyorgarligi, ma’ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar bilan tanishishi; (talabalar soni, tashqi ko‘rinishi, o‘quv qo‘llanmalar va qurollar)

• **uslublar, shakllar, usullar:** yo‘riqnoma, oldindan so‘rash, topshiriq kartochkalari:

2-bosqich. Asosiy qism (55 daqiqa)

• **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuga kirish, o‘tgan mavzularni yodga olish, ma’ruza matnini tarqatish, uni yaxshi o‘zlashtirib olishni taklif qilish, mavzu rejalarini har biriga alohida tushuntirish berish, aqliy hujum, klaster, B/B/B/ jadvali va popuk usullaridan foydalanish, jonli muloqot, yuridik atamalarga izohlar berish, slaydlar orqali atroflicha tushuntirib berish va ma’ruza matnini o‘qish;

• **talabanning faoliyati:** bilimlarini mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, tushunmagan iboralar bo‘yicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish.

• **uslublar, shakllar, usullar;** oldindan so‘rash, blis-so‘rov, “Insert” usulidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

• **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash, talabalar fikrini asosiy mavzuga qaratish, dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash.

• **talabanning faoliyati:** ishni tahlil qilish, dars jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilash, mustaqil ish mavzusini yozib olish.

• **uslublar, shakllar, usullar:** guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1.3. O‘quv –uslubiy materiallar

Ma’ruza rejasi:

- Advokatlik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari.
- Advokatning ish materiallari bilan tanishishi va mijoz bilan suhbat
- Advokatning mijoz bilan munosabati.

Tayanch iboralar: advokatlarning xushmuomala, halol, insofli bo‘lishi, himoyaning qonun yo‘l qo‘yadigan barcha usullaridan foydalanishi, o‘z pozitsiyasini faol himoya qilishi, mijoz bilan kelishilmagan holda huquqiy pozitsiyani belgilash; advokatning mijoz bilan munosabati, odil sudlovni amalga oshirishda haqiqatni aniqlashga yordam berish, shaxsga nisbatan g‘ayriqonuniy usullar qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilish, adolatli jazo tayinlanishiga yordam berish.

2.1. Advokatlik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari

Yurtimizda demokratik fuqarolik jamiyati qurish harakati ostida ko‘plab qonunlar qabul qilindi. Ularning aksariyati inson huquq va erkinliklariga rioya qilish borasida yangi qadriyatlar va ko‘nikmalarni shakllantirish, pirovard natijada esa inson huquqlariga hurmat-ehtiromni va ularga rioya etishni umummillat darajasida rivojlantirishga qaratilgan madaniyatni yuzaga keltirish g‘oyat muhimdir. Prezidentimiz I.Karimov tomonidan alohida ta’kidlanib o‘tilganida chuqur ramziy ma’no bor. Fuqarolar konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining advokat tomonidan sud-tergov idoralarida jinoyat ishlar bo‘yicha himoya qilinishi himoyachilik, deb e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasi JPKning 49-moddasida belgilab qo‘yilganidek, «Himoyachi gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga kerakli yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir». Demak, ushbu qonundan ko‘rinib turibdiki, advokat maxsus shaxs bo‘lib, uning huquqiy layoqati nafaqat advokatura to‘g‘risidagi qonunlar va me‘yoriy hujjatlar bilan, balki u ishtirok etayotgan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonun normalari bilan ham tartibga solinadi.

Advokatning jamiyatda tutgan o‘rni, uning huquqiy maqomi va mamlakatda odil sudlovni amalga oshirishdagi roliga baho berishda davlat tomonidan advokat oldiga qo‘yilgan vazifalar mohiyatini tushunib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Advokatning eng asosiy vazifasi shundaki, jinoyat sodir etgan deb gumon qilinuvchi, yoki ayblanuvchining aybini xaspo‘shlashdan iborat emas, balki odil sudlovni amalga oshirishda haqiqatni aniqlashga yordam berishdan iboratdir. Ya’ni shaxsga nisbatan sud-tergov

idoralari tomonidan g'ayriqonuniy usullarning qo'llanishiga yo'l qo'ymaslik, qilgan jinoyatiga yarasha to'g'ri hamda adolatli jazo tayinlashiga erishishda muhim rol o'ynashi lozim. Advokat faoliyatidagi ushbu prosessual vazifalar quyidagi holatlardi o'z aksini topadi:

- advokat odil sudlovni amalga oshirishda haqiqatni aniqlashga yordam beradi.
- shaxsga nisbatan g'ayriqonuniy usullar qo'llanilishiga to'sqinlik qiladi.
- aybdor shaxsning harakatini huquqiy malakalash, qilmishiga yarasha adolatli jazo tayinlanilishiga yordam beradi.
- jamiyat a'zolarining huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 22-moddasida haqiqatni aniqlash ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra "Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek u bilan bog'liq" barcha holatlarni aniqlashi shart. Advokat sud-tergov hujjatlarini o'rganibgina qolmay balki o'zi ham himoya uchun zarur bo'lgan dalillarni, ma'lumotlarni to'plashi lozim. U avvalambor, ichki tuyg'usiga ko'proq tayanishi lozim. Advokat o'z himoyasidagi shaxsning aybdorligiga ishonsa ham mijozni aybni bo'yniga olmasa, himoyachi uning pozitsiyasini qo'llab, kasbiy faoliyatiga qarama-qarshi bo'lib qolishi ham mumkin bo'ladi. Shunday hollarda advokatning shaxsiy fikri uning prosessual himoyachilik pozitsiyasiga ta'sir o'tkazmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi JPKning II-moddasida "Sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, himoyachi, shuningdek, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu O'zbekiston Respublikasi JPK va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga aniq rioya etishlari va ularning talablarini bajarishlari shart"ligi belgilab qo'yilgan. Ammo ayrim huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchini qilmagan gunohlarini qilganligiga iqror qilish uchun turli g'ayriqonuniy usullardan foydalanish hollari kam bo'lsada uchrab turibdi (ya'ni ularni turli qiynoqlarga solish, ataylab sovuqda yoki issiqda saqlash, giyohvand moddalarini yoki alkogol mahsulotlarini berish, urish, do'pposlash och qoldirish, tashna, qoldirish kabi yana ko'plab g'ayriqonuniy usullar) shular jumlasidandir.

Bu harakatlar O'zbekiston Respublikasi JPK 11-moddasi "Qonuniylikning" buzilishi, 17-modda "Shaxsning qadr-qimmatini sha'nini hurmat" qilmasligi 18-moddasi "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishning" buzilishi, 22-modda "Haqiqatni aniqlash"da

adolatsizlik qo'llanilishi, 23-modda "Aybsizlik prezumpsiyasi"ning buzish, 88-modda "Isbot qilish jarayonida fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash" kabi qonunda belgilangan holatlarni qo'pol tarzda buzish demakdir.

Shunda advokat bunday harakatlar sodir bo'lganligini mijozidan eshitgan zahotiy oq vakolatli shaxslarga yetkazish lozim.

Bundan tashqari advokat mijozining zudlik bilan kasalxonaga yotqizish, g'ayriqonuniy holatlarga bosh bo'lgan xodimlarga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atish haqida dastlabki tergov va sud idoralari ariza va shikoyat, iltimosnomalar kiritishi mumkin. Shuningdek, guvohlar topib, ulardan tushuntirish xatlari olish, rasmiy ma'lumotlarni mutaxassis yoki ekspert fikrini so'rab olish kabi prosessual harakatlarni amalga oshirish lozim.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi JPKning 4-va 8-moddalarida qonuniylik va odillik prinsiplari ko'rsatilgan bo'lib, unga asosan "Sodir etilgan qilmishning jinoiyliigi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlar faqat Jinoyat Kodeksi bilan belgilanadi" hamda "Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas". Ammo advokatlik amaliyotlarida qonunda belgilab berilgan holatlardan chetga chiqib, aybdor shaxsning harakatini to'g'ri huquqiy malakalashda ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Shuning uchun bo'lsa kerakki, aholi o'rtasida qonunlarga nisbatan hurmatsizlik, davlat siyosatiga nisbatan norozichiliklar ham uchramoqda. Shunda advokatlarning ana shunday noto'g'ri malakalangan ishlarni bartaraf etishda odillik, adolat tantanasi yo'lida vijdonan xizmat qilmog'i lozim. Advokat o'z himoyasidagi mijozini faqat qilmishiga yarasha jazo tayinlanishi uchun sud-tergov xodimlariga yetarli asosli dalillarni taqdim eta olishi lozim.

Advokatning prosessual burchi himoyasidagi shaxsning faqat jazoni yengillashtiruvchi holatlariga, uning insoniy fazilatlariga, jamiyatda tutgan nisbiy o'rni va xulq-atvoriga, qolaversa jabrlanuvchining salbiy va huquqqa xilof harakatlariga e'tiborini qaratishi lozimligini taqozo etishi mas'ul fazilatlaridan asosiysi bo'lib qolishi lozim.

Advokatlik faoliyatining asosiy yo'nalishi bu fuqarolarga va yuridik shaxslarga huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar, tushuntirish, ma'lumotnomalar berish va huquqiy xususiyatdagi ariza, shikoyat va boshqa hujjatlarni tuzish, uning ushbu vazifasi O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 5-moddasida o'z aksini topgan. Ushbu qonun advokatlik faoliyati bilan shug'ullanmaydigan, oliy yuridik

ma'lumotli surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, huquqshunos olim, adliya xodimlariga huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar berish, shikoyat yozib berish yoki boshqa hujjatlarni tuzish kabi vazifalarni yuklamagan. Demak, advokatlik faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, davlatimiz tomonidan aholining huquqiy ongini oshirishda, huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, qonunlar mohiyatini fuqarolarga, mansabdor shaxslar ongiga singdirib borishda bevosita ishtirok etishi muhim hisoblanadi.

2.2. Advokatning ish materiallari bilan tanishishi va mijoz bilan suhbat

JPKning 402- moddasida nazarda tutilgan himoyachining ish materiallari bilan to'liq tanishish huquqiga ega ekanligi ham ahamiyatga egadir. Ish materiallari bilan tanishishi jinoyat sudlov ishlarining to'la, har tomonlama va xolisona olib borilganligini tekshirishga imkoniyat yaratadi. Ish bilan to'la tanishmasdan himoyachi sudlanuvchiga samarali huquqiy yordam ko'rsatishi qiyin kechadi. Advokatning ish materiallari bilan to'la tanishmasligi sudlanuvchining himoyachidan voz kechishiga sabab bo'lishi mumkin.

Advokatga ishnig barcha materiallari to'liq holda taqdim etilishi kerak, ish yurituvi davomida tuzilgan va to'plangan barcha hujjatlar ishda bo'lishi shart, ularni olish yoki yo'q qilishga hech kim haqli emas. Advokat jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash vaqtida ish materiallaridan ayblovning ba'zi yoki barcha bandlari yuzasidan dalillar to'liq emasligini aniqlasa, qo'shimcha dalillarni yig'ish yoki ishni dastlabki tergovga qaytarish, ayblovning ma'lum bandlarini chiqarish to'g'risida iltimosnomalar keltirishi mumkin.

Advokat, shuningdek, sudlanuvchi sodir etgan harakatlariga nisbatan JKning moddasi to'g'ri qo'llanilishiga, ayblov xulosasi qonun talablariga muvofiq tuzilganligiga, ehtiyot chorasi to'g'ri tanlanganligiga e'tibor berishi lozim.

JPKning 241-moddasiga asosan, agar shaxsga nisbatan dastlabki tergov yoki sud muhokamasi jarayonida ehtiyot chorasi qo'llanilgan bo'lsa, bu shaxs, o'ziga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot chorasi ustidan shikoyat qilish huquqiga ega bo'ladi. Prokuror yoki yuqori sud shikoyatni uch kun muddat ichida o'rganib chiqib, o'z qarori to'g'risida shaxsni xabardor qilishi kerak bo'ladi.

Advokat o'z himoyasi ostidagi shaxs bilan sud muzokarasi arafasida uchrashganda, o'z mijozni dastlabki tergovda bo'yniga olgan aybning qanchalik mustahkamligini tekshirib ko'rish kerak. Sudlanuvchidan, aybni mustaqil, o'ylab va ongli ravishda yoki unga bog'liq bo'lmagan boshqa

ta'sirlar sababli bo'yniga olganligini so'rash lozim. Suhbat davomida mijozi o'zini-o'zi ayblashga urinmayotganligi alohida nazoratdan o'tkazilishi uchun ba'zi bir holatlarni aniqlashtirib olishi lozim bo'ladi;

- surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan jismoniy tazyiq o'tkazilmaganligi;

- ruhiy tazyiq (bayonnomalarsiz so'roq qilish, tungi so'roqlar, och qoldirish va h.k.)bo'lmaganligi;

- dalillar orqali shantaj qilinmaganligi;

- qamash bilan qo'rqitish yoki ozodlik va'da qilinmaganligi;

- uning barcha huquq va majburiyatlari to'liq tushuntirilganligi va h.k.

Sud majlisi oldidan sudlanuvchi bilan suhbatda advokat himoyasi ostidagi shaxsning qanday pozitsiyani egallashini ham aniqlashi kerak, u dastlabki tergovdagi pozitsiyasida turadimi yoki uni o'zgartiradimi, ko'rsatmalar beradimi, bu ko'rsatmalar qanday mazmunda bo'lishini aniqlab olishi lozim.

Advokat suhbat chog'ida JPKning 410-moddasidagi sudlanuvchining sud muhokamasidagi ishtiroki, 439-moddasidagi raislik qiluvchining undan o'z aybiga iqror yoki iqror emasligini so'rashi va uning javobi sud bayonnomasiga kiritilib, daliliy ahamiyatga ega bo'lishi haqidagi qoidalarni tushuntirib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, advokat o'z mijozini mustaqil qaror qabul qilishiga ishonirish va uning qaysi qarori qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini alohida tushuntirib berishi lozim. Sudlanuvchi sud jarayoni davomida har qanday holatga ham tayyor bo'lib, o'z pozitsiyadan voz kechmasligi, himoyachining ham himoya pozitsiyasida oxirigacha turishi muhim hisoblanadi.

2.3. Advokatning mijoz bilan munosabati

Advokat yuridik yordam so'rab murojaat qilgan shaxsning muammosi mohiyatini chuqur o'rganib, uni mijozga sodda qilib tushuntirishi, qonunga tayangan holda baho berishi lozim. Davlat himoyasi yoki shartnomaga asosan himoyani o'z zimmasiga olgan advokat uning sud yoki tergovga yo'llangan iltimosnomalari qondirilmaguncha va bu haqda advokatlik birlashmasiga ma'lum qilingunga qadar himoya, vakillikdan bosh tortishi mumkin emas.

Advokat quyidagi hollarda ishda qatnashishga haqli emas:

Aynan shu ish bo'yicha yordam so'raganlarga qarama-qarshi tomonga shunday yordam ko'rsatgan yoki ko'rsatmoqchi bo'lsa; u mazkur ish bo'yicha avval sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, ekspert,

mutaxassis, tarjimon, guvoh sifatida ishtirok etgan bo'lsa.

Ishda qatnasha olmasligi haqidagi iltimosnoma sud va tergov organlari tomonidan qanoatlantirilgan taqdirda advokat mijozni va advokatlar birlashmasi rahbariyatini bu haqda kechiktirmay xabardor qilishi lozim. Negaki, mijoz boshqa advokat yollash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Advokatning mijozga talablari bajarilishiga kafolat berishi man etiladi. Agar advokat da'voning yoki e'tirozning asosli ekanligiga shubha qilsa, mijoz bilan shartnoma tuzgan holda unga da'vo qondirilmasligi mumkinligini tushuntirishi lozim. Da'vo talablari yoki e'tirozlarning asossizligi, ishda huquqiy pozitsiya yo'qligiga ishonch hosil qilgan holda advokat o'z fikrini mijozga ma'lum qilishi shart. Agar da'voning yoki e'tirozning asossizligi sud jarayonida ma'lum bo'lsa va mijoz uning ishda ishtirok etishda davom etishini talab qilsa, advokat qonun hujjatlarini aralashtirmay mijozning talab va e'tirozlari bilangina chegaralanishi lozim. Advokat huquqiy pozitsiyasini yuridik yordam so'ragan shaxs bilan kelishishi shart va uning roziligisiz pozitsiyani o'zgartirishga haqli emas.

Advokat himoyasidagi shaxs o'zini aybsiz, deb bilsa uning aybi isbotlangan deyishga yoki aybga undashga haqli emas. Himoyalannuvchi aybiga iqrora bo'lganda ham advokat uning aybdorligiga shubha qilsa, beaybligini ta'kidlash, isbotlash huquqiga egadir. Bu holda advokat himoyalannuvchidan o'zgacha mustaqil pozitsiyani egallab himoyasidagi shaxsning oqlanishini talab qilishi mumkin. Agar mavjud dalillar himoyalannuvchining harakatida unga qo'yilgan aybga nisbatan yengilroq alomatlar borligini isbotlasa, advokat himoyasidagi shaxsga bu haqda ma'lum qilishi va u bilan yengilroq jinoyatni nazarda tutgan pozitsiyani kelishib olishi lozim. Jinoiy guruh ishi bo'yicha qatnashganda va ayrim himoyalannuvchi-larning manfaatlari orasida ziddiyat mavjud bo'lgan hollarda advokat sud, surishtiruv jarayonida o'zining himoyasidagi shaxsga taalluqli, uning aybini inkor etuvchi, aybdorligiga gumon tug'diruvchi, aybini yengillashtiruvchi dalillarni to'plab ularni baholashi va bu haqda o'zining himoya nutqida bayon etishi lozim. Advokat jabrlannuvchini yolg'on, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ko'rsatma berishga undashga haqli emas. Yuridik xizmat uchun to'lanadigan gonorar miqdori advokat va mijoz o'rtasida kelishilgan holda advokatura organi rahbari ishtirokida belgilanadi.

1.3.2-a Blis- so'rov bo'yicha savollar;

1.O'zbekiston Respublikasi JPKning qaysi moddasida advokatning vakolati belgilab berilgan ?

2.Advokatlik faoliyatining asosiy yo'nalishi nimalardan iborat ?

3. Advokat JPKning qaysi moddasiga binoan ish materiallari bilan tanishish huquqiga ega?

4. O'zbekiston Respublikasining advokatura to'g'risidagi qonun hujjatlari haqida nimalar bilasiz ?

5. Ish bilan to'liq tanishmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

6. Advokat o'z himoyasi ostidagi shaxs bilan sud muzokarasidan oldin uchrashganida nimalarga e'tibor qaratishi kerak ?

7. Odil sudlov jarayonida advokatning asosiy vazifasi nimadan iborat ?

8. Advokatning mijoz bilan munosabati qanday bo'lishi lozim?

9. Advokat qanday hollarda ishda qatnashishga haqli emas?

1.3.2-b. Og'zaki nazorat uchun savollar

1. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni kim amalga oshiradi ?

2. "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 5-moddasida nima deyilgan?

3. Sudlanuvchining himoyachidan voz kechishiga sabab bo'lishi mumkin harakatlardan qaysilarini bilasiz?

4. Advokat jabrlanuvchini yolg'on, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ko'rsatma berishga undashga haqli deb bilasizmi ?

5. Advokatning ishda qatnasha olmasligi to'g'risidagi xabar kimlarga yetkazilishi kerak ?

6. Advokatning mijozga talablarini bajarishga kafolat berishi mumkinmi?

1.3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

• **Takrorlash va mashqlar:** qaytarish, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta tayyorgarlik ko'rish, esda saqlash;

• **Yangi materiallarning mustaqil asosi;** yangi adabiyotlar, Internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar tuzish.

• **Ilmiy xarakterdagi ishlar:** muammoli vaziyatlar, testlar, savollar, topshiriq va slaydlarni tuzish.

1.3.4. Topshiriq kartochkalari uchun testlar

1. Advokatlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

A) yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega, odil sudlovni amalga oshirishda haqiqatni aniqlashtirishga yordam beradi, shaxsga nisbatan g'ayriqonuniy usullar qo'llanilishiga to'sqinlik qiladi, qilmishga yarasha adolatli jazo tayinlanilishiga yordam beradi.

B) shaxsga nisbatan g'ayriqonuniy usullar qo'llanilishiga to'sqinlik qiladi, qilmishga yarasha adolatli jazo tayinlanilishiga yordam beradi, jinoyatni ochishda faollik ko'rsatadi:

C) yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega, odil sudlovni amalga oshirishda haqiqatni aniqlashtirishga yordam beradi, statistik ma'lumot to'playdi:

D) odil sudlovni amalga oshirishda haqiqatni aniqlashtirishga yordam beradi, nogironlarning huquqlarini himoya qilish.

2. Advokatlik faoliyatining o'ziga xosligi nimalardan iborat

A) aholining huquqiy ongini oshirishda, huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jinoyatlarni tez ochilishida bevosita ishtirok etish;

B) aholining huquqiy ongini oshirishda, huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, qonunlar mohiyatini fuqarolarga, mansabdor shaxslar ongiga singdirib borishda bevosita ishtirok etish;

C) jinoyatlarni tez ochilishida, huquqiy madaniyatini yuksaltirishda bevosita ishtirok etish;

D) aholining huquqiy ongini oshirishda, huquqiy madaniyatini yuksaltirishda bevosita ishtirok etish;

3. Advokat o'z himoyasi ostidagi shaxs bilan sud muzokarasi arafasida uchrashganda;

A) surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan jismoniy tazyiq o'tkazilmaganligi, ruhiy tazyiq bo'lmaganligi, dalillar orqali shantaj qilinmaganligi, qamash bilan ko'rqitish, ozodlik va'da qilinmaganligi.

B) dalillar orqali shantaj qilinmaganligi, qamash bilan ko'rqitish, ozodlik va'da qilinmaganligi.

C) surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan jismoniy tazyiq o'tkazilmaganligi, siyosiy-ma'naviy homiylik qilish va'da berilmaganligi.

D) qamash bilan ko'rqitish yoki ozodlik va'da qilinmaganligi, och qoldirilmaganligi, qochirib yuborishni va'da bermaganligi.

4. Advokat huquqiy pozitsiyasini qaysi shaxs bilan kelishishi shart va kimning roziligisiz pozitsiyasini o'zgartirishga haqli emas

A) advokat huquqiy pozitsiyasini yuridik yordam so'ragan shaxs bilan kelishishi shart, tergovchi bilan, mijozining ota-onasi bilan.

B)advokat huquqiy pozitsiyasini yuridik yordam so‘ragan shaxs bilan kelishishi shart, surishtiruvchi, prokuror bilan, mansabdor shaxslar bilan kelishgan holda.

C) advokat huquqiy pozitsiyasini yuridik yordam so‘ragan shaxs bilan kelishishi shart, mijozning rozilgisiz pozitsiyani o‘zgartirishga haqli emas.

D) mijozning, qarindosh-urug‘ining rozilgisiz pozitsiyani o‘zgartirishga haqli emas

1.3.6.Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1.Karimov I.A. Inson, uning huquqlari va erkinliklari, manfaatlari – oliy qadriyat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinganligining 13 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilgan ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 10- dekabr. 2005- yil

2.Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O‘zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi) -T., 30- avgust, 2007 yil.

4. Karimov I.A. «Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot barpo etish yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirishdir». (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 15 yilligiga bag‘ishlangan nutqi) Xalq so‘zi, 8- dekabr2007- yil

5. Karimov I.A. 2008-yilda O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi. O‘zbekiston ovozi gazetasi, 12- fevral 2008- yil.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni. -T.: 26- dekabr 1996- yil

7. Abdumajidov G.A., Rustambayev M.X. i dr. Advokatskaya deyatelnost v Respublike Uzbekistan. V dvux tomax. – T.:Konseauditinform, 2007 g.

8. Kucheren A.G., Advokatura: Uchebnik – M.: Yurist, 2005 g.

9. Smolenskiy M.B. Advokatura v Rossiyskoy federasii. Uchebnik. – Spb.: Izdatelstvo «Yuridicheskiy sentr Press». 2003 g.

10. Allamurotov A.T. Advokatura v Respublike Uzbekistan. Uchebnoye posobiye. – T.: TDYuI, 2006 g.

Qo‘shimcha adabiyotlar

11. **Гаврилов С.Н.** Адвокат в уголовном процессе. М., 1997 г.

12. **Бернам У., Решетникова И.В., Прошляков Н.Д.** Судебная адвокатура, - СПб., Изд-во «Санкт-Петербургского университета», 1996 г.

13. Уголовно-процессуальное право: Учебник под общей ред. проф. **П.А.Лупинской** – 3-е изд-во перераб. и доп. – М.: «Юрист» 2003 г.

14. «Inson manfaatiga xizmat qilish» Zarafshon gazetasi, 15- yanvar 2008 -yil.

14.**Salomov B.** O‘zbekistonda advokatlik faoliyati. T.: «Adolat», 2000.

15.**Tulaganova G.** Jinoyat protsessida himoyachining ishtiroki. O‘quv qo‘llanma. T.: TDYuI, 2005- y.

1.3.7. Internet manbalari

1.<http://www.zakon.ru>

2.<http://www.narod.ru>

3.<http://www.advokat.ru>

4.<http://www.msal.ru>

1.4. 1.4. O‘qitishning uslubiy qoidalar

1.4.1. Aqliy hujum

“Aqliy hujum” uslubi universal qo‘llanish xarakteriga ega. “Aqliy hujum” uslubining vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi-yangi g‘oyalarni yaratishdir. “Aqliy hujum”uslubi muammoni hal qilayotgan kishilarning ko‘proq aql bovar qilmaydigan va hatto fantastik g‘oyalarni yaratishga undaydi. G‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa, ularning hech bo‘lmaganda bittasi ayni muddao bo‘lishi mumkin. Bu “aqliy hujum” orqali o‘tkazilgan dars negizidagi tamoyildir.

“Aqliy hujum”ning qoidalari

• fikr hech qanday cheklanmagan holda iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim;

• har qanday g‘oyani aytish mumkin;

• g‘oyalarga tushuntirish berilmaydi, vazifaga bevosita bog‘liq holda aytiladi;

• takliflar berish oxiriga yetmaguncha aytilgan g‘oyalarni tanqid yoki muhokama qilishga yo‘l qo‘yilmaydi;

• barcha aytilgan fikrlar yozib boriladi.

- “aqliy hujum” uslubi to‘xtatilgandan so‘ng barcha aytilgan g‘oyalar muhokama qilinib, eng maqbuli tanlanadi.

- “aqliy hujum” usuli yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalar faolligini oshirishga, charchoqni yo‘qotishga, g‘oyani izlashga sharoit yaratadi.

1.4.2. Kichik guruhlarda ishlash

- Har bir talaba o‘z o‘rtogi fikrini eshitishi, hurmat va xushmuomalada bo‘lishi;

- Har bir talaba faol ishtirok etishi, berilgan topshiriqqa nisbatan mas‘uliyatli va javobgarlikni his qilishi lozim;

- Har kimga yordam ko‘rsatish kerak, qaysikim u yordamga muhtoj bo‘lsa;

- Guruh ishiga baho berish jarayonida har bir talaba faol ishtirok etishi lozim.

- O‘zgaga yordam berib o‘zimiz ham o‘rganishimiz mumkinligini har bir oquvchi- talaba bilishi kerak.(birgalikda bajaramiz yoki hammamiz yutqazamiz)

3-Mavzu: SUD MAJLISIDA ADVOKATNING ISHTIROKI

1.1. Ma'ruza topshiriqlar rejasi

O'quv vaqti: 2 soat (ma'ruza); 2 soat (seminar mashg'uloti).

Dars turi: ma'ruza; o'tilgan mashg'ulotlarning takrorlab, bilim ko'nikmalarini mustahkamlash.

Epigraf: *"Adolatli sud ishidagi qat'iyatli advokat va yulduzli osmon ostidagi o'quvli matematik-har ikkisi barobar Tangriga o'xshashdir"*.

I.Gyote.

Ma'ruza rejasi:

REJA:

- Himoya pozitsiyasini tanlash (aybsizlik pozitsiyasi, qisman aybdorlik pozitsiyasi, aybiga to'liq iqror bo'lish pozitsiyasi, sukut saqlash pozitsiyasi).

- Himoyaning asosiy prinsiplari birlashgan pozitsiyasini tuzish rejasi.
- Koalitsiyaviy hamda kolliziyaviy himoya.

Darsning maqsadi: talabalarga advokatlik faoliyatining o'ziga xos fazilatlari haqida tushuncha berish, aybsizlik pozitsiyasi, qisman aybdorlik pozitsiyasi, aybiga to'liq iqror bo'lish pozitsiyasi, sukut saqlash pozitsiyasi haqida bilim ko'nikmalarini shakllantirib borish hamda koalitsiyaviy va kolliziyaviy himoya to'g'risida bilimlarini shakllantirib borish.

Ilmiy mashg'ulotning vazifasi:

- **o'rgatuvchi:** ishtirokchilarning qatnashishini tashkil etish, yangi olingan bilimlarni takrorlash, talabalarning yuridik yordam olish, huquqiy kafolatlar to'g'risidagi fikrlarini rivojlantirish, sud majlisida advokatning pozitsiyasi va uning alohida jihatlari to'g'risidagi bilim ko'nikmalarini hosil qilish.

- **rivojlantiruvchi:** o'quv darsligidan to'g'ri foydalanish, muhim qonun va qonun osti hujjatlari bilan ishlashni o'rganish, advokaturaga oid me'riy hujjatlarni ajrata bilish, tadqiq etish, shu sohaga oid yangi takliflar kiritish, olingan nazariy bilimni amaliyotga qo'llash mahoratini rivojlantirish, talabalarda koalitsiyaviy va kolliziyaviy himoya usullariga rioya etishni shakllantirish hamda ularda himoyaning asosiy prinsiplariga rioya eta bilish san'atini takomillashtirib borish.

Tarbiya beruvchi tomoni:--talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish, talabalarning tartib-qoidalariga rioya qilishni o'rgatish, O'zbekiston Respublikasi *sud majlisida himoyachining ishtirokining* o'ziga xos xususiyatlari, advokatning ish materiallari bilan tanishishi va mijoz bilan suhbat, mijoz bilan munosabati to'g'risida to'liq tushuncha berish, mavzuni talabalarga tushunarli, ular uchun eng sodda usulda tushuntirish kabilar orqali shaxsda qonunlarga rioya etish, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklarini himoya qilish his tuyg'ularini tarbiyalash.

O'rganish texnologiyasi

• **o'qitish usullari;** ma'ruza, aqliy hujum, klaster, popuk, usullaridan foydalanish, jonli muloqot, yuridik atamalarga izohlar berish.

• **o'rganish turlari:**og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy, tarqatma materiallar orqali mavzuni tushuntirish.

• **o'rganish yo'nalishlari:** ma'ruza matni, himoya pozitsiyalariga oid materiallar, advokatlar huquqiy pozitsiyalari sxemalari, sud jarayonidagi ishtiroki tushirilgan slaydlardan foydalanish.

• **o'rganish talablari:** auditoriya texnik yoritgichlari bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish.

• **monitoring va baholash:** og'zaki nazorat, savol-javoblar, blis-so'rov

Pedagogik vazifalar:

• O'quv jarayonida fanning ahamiyati va uning o'rni bilan tanishtirish,

• O'quv fanining tuzilishi va tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti to'g'risida tushuntirishlar berish:

• Fan sohasida ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli; o'qitish jarayonini tashkillashtirish jarayonining umumiy sxemasini tasniflash;

• O'qitish jarayonini umumiy tasniflash;

• O'qitish texnologiyasini rivojlantirish istiqbollari tasniflash.

O'quv faoliyati natijalari:

• Fanning nomlanishi va vazifasini belgilash;

• Faoliyatdagi alohida usuli va tashkiliy jihatlarini ochib berish;

• O'quv faninig umumiy va tashkiliy tuzilishlari to'g'risida atroflicha tushuntirish berish;

• Himoya pozitsiyasini tanlash ya'ni, aybsizlik pozitsiyasi, qisman aybdorlik pozitsiyasi, aybiga to'liq iqror bo'lish pozitsiyasi, sukut saqlash

pozitsiyasi, himoyaning asosiy prinsiplari, koalitsiyaviy hamda kolliziyaviy himoya asosiy tushunchalarini, fanning asosiy

yoʻnalishini beradi;

- Nazariy bilimlarning toʻlaligi, tizimliliigi, amaliyligi;
- Amaliy topshiriqlarni bajarishda oʻrganilgan tushunchalardan foydalana olish;
- Kursning asosiy mazmunli yoʻnalishi boʻyicha ularning boshlangʻich bilimlarga ega boʻlishi.

1.2.Maʼruzaning xronologik kartasi

1-bosqich. Oʻquv mashgʻulotlariga kirish (15 daqiqa)

• **oʻqituvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli manbalar berish, maʼruza haqida tushuntirish berish, oʻquv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlar toʻgʻrisida maʼlumot berish, dars davomida talabalar bilimini baholab borish usullari haqida tushuntirishlar berish;

• **talabaning faoliyati:** darsga tayyorgarligi, maʼruza matni bilan va mavzuga oid rejalar bilan tanishishi (talabalar soni, tashqi koʻrinishi, oʻquv qoʻllanmalar va qurollar)

• **uslublar, shakllar, usullar:** yoʻriqnoma, oldindan soʻrash, topshiriq kartochkalari.

2-bosqich. Asosiy qism (55 daqiqa)

• **oʻqituvchi faoliyati:** mavzuga kirish, oʻtgan mavzularni yodga olish, maʼruza matnini tarqatish, uni yaxshi oʻzlashtirib olishni taklif qilish, mavzu rejalarining har biriga alohida tushuntirish berish, aqliy hujum, klaster, popuk, usullaridan foydalanish, jonli muloqot, huquqiy himoya pozitsiyalar toʻgʻrisida tushuncha berish, slaydlar orqali atroflicha tushuntirib berish va maʼruza matnini oʻqish;

• **talabaning faoliyati:** bilimlarini mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, tushunmagan iboralar boʻyicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish.

• **uslublar, shakllar, usullar:** oldindan soʻrash, blis-soʻrov, “Insert” usulidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

• **oʻqituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash, talabalar fikrini asosiy mavzuga qaratish, dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan faol talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash.

- **talabning faoliyati:** ishni tahlil qilish, dars jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilash, mustaqil ish mavzusini yozib olish.
- uslublar, shakllar, usullar:** guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1.3. O‘quv –uslubiy materiallar

Ma’ruza rejasi:

- Himoya pozitsiyasini tanlash (aybsizlik pozitsiyasi, qisman aybdorlik pozitsiyasi, aybiga to‘liq iqror bo‘lish pozitsiyasi, sukut saqlash pozitsiyasi).
- Himoyaning asosiy prinsiplari birlashgan pozitsiyasini tuzish rejasi.
- Koalitsiyaviy hamda kolliziyaviy himoya.

Tayanch iboralar: ish bilan tanishish, mijoz bilan holi suhbatlashish, sud majlisida himoya usulini ishlab chiqish, aybsiz, qisman aybdor, to‘liq aybdor, sukut saqlash, aybsizlik prezumpsiyasida turish, ayblov dalillarini rad etish, himoya dalillarini mustahkamlash, “koalitsiya” – (coalitus, lotincha birlashgan), umumiy maqsadlarga erishish, “kolliziya”(lotincha «colisio» – to‘qnashuv), silsila, qarama-qarshi kuchlar, manfaatlar, qarashlar, to‘qnashuvchi.

1. Himoya pozitsiyasini tanlash (aybsizlik pozitsiyasi, qisman aybdorlik pozitsiyasi, sukut saqlash pozitsiyasi)

Himoyaga tayyorlanish va uni sud majlisida olib borish ijodiy jarayon bo‘lib, ular ketma-ket bosqichlardan iborat. Jumladan, ish bilan tanishish va mavjud materiallarni tahlil etish ish yurituv hujjatlarini tuzish va ish materiallaridan ko‘chirmalar olish; ish bo‘yicha himoya taktikasini ishlab chiqish; himoyadagi shaxs bilan xoli suhbatlashish; sud majlisidagi himoya usulini ishlab chiqish; himoya nutqi rejasini va tezislarni ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Yuqoridagi barcha himoya bosqichlarining har bir o‘z o‘rnida va ularga alohida yondashuvni talab qiladi. Himoya pozitsiyasiga amaliy nazar bilan qaraganimizda, uni bo‘lib o‘tgan voqeyani himoyasidagi shaxsning manfaatlariga maqbul tarzda ifodalash ekanligini anglash mumkin. Himoya pozitsiyasini tanlash bunda ayblanuvchining so‘roq bayonnomasida aybini u ixtiyori bilan aybnomaga bo‘lgan munosabati, ya‘ni to‘liq tan olmayman, qisman tan olaman, to‘liq tan olaman yoki aybnomaga bo‘lgan munosabatni ifodalashdan bosh tortaman deb bildirishiga qarab, himoya pozitsiyasi belgilanadi. Jumladan, aybsiz, qisman aybdor, to‘liq aybdor, sukut saqlash kabi himoya pozitsiyalari tayyorlanadi.

Aybdorlik pozitsiyasi. Himoyadagi shaxs o'zini aybdor deb tan olmasa, himoya uni hech qachon aybdorligini tan olishiga qaratilgan. himoya pozitsiyasida turishi mumkin emas. Aybsizlik pozitsiyasining huquqiy tomonlari, yani ish bo'yicha jinoiy hodisaning yuz bermaganligi, qilmishda jinoyat tarkibining yo'qligi, ixtiyoriy ravishda jinoyat qilishdan qaytish, ayblash uchun aybning isbot topmaganligi kabi holatlarga alohida urg'u berish lozim. Ushbu aybsizlik pozitsiyalarining barchasi taqib qilishning to'xtatishi va oqlash uchun yetarli hisoblanadi. Agar ularning fuqarolik muomalada huquqiy oqibatlarini bo'lsa, unda fuqarolik da'vosi kiritilgan jinoyatda, aybning isbot topmaganligida turib olinadi.

Qisman aybdorlik pozitsiyasida esa mijoz o'ziga nisbatan e'lon qilingan aybni to'liq yoki qisman tan olinganida himoyachi

- aybnomaning kvalifikatsiyasiga emas, balki uning hajmiga nisbatan e'tibor qilishi;
- e'lon qilingan aybdagi faktlarni tan olib ularning huquqiy bahosiga e'tiroz bildirishi;
- aybnomadagi bayon etilgan malumotlar bilan rozi emasligini bildirish lozim.

Mijoz ayblovdagi dalillarni noto'g'ri deb e'tiroz bildirsa? ya'ni oldindan til biriktirmaganligi, jinoyat sodir etish maqsadida uchrashmaganligi balki, tasodifiy uchrashilganligi;

-Ayblovdagi bo'lgan voqeya yoritilmaganligi M: nomusga tegish bo'yicha ishda jabrlanuvchining o'zi uni uyiga taklif etganligi ya'ni ixtiyoriy ravishda jinsiy aloqada bo'lganligi, lekin unga uylanishdan bosh tortganligi sabab militsiyaga ariza berganligi to'g'risidagi fikrlar qisman aybdorlikning himoya pozitsiyasida qo'llanilishi lozim.

Qisman aybdorlikni huquqiy pozitsiyasi quydagilardan iborat:

- ayblovdan iborat alohida epizodlarni chiqarib tashlash;
- yetkazilgan deb belgilangan zarar hajmini kamaytirish;
- ayblanuvchi sodir etgan harakatlarini JKboshqa moddalari bo'yicha yoki shu moddalarni boshqa qismi bilan kvalifikatsiya qilish;
- jabrlanuvchining xulq-atvorini ig'vo sifatida tan olishi;
- jazoni yengillashtiradigan va favqulotdagi holatlarni tan olishi kabi huquqiy pozitsiyalarni qo'llashni so'rash lozim.

Aybiga to'liq iqror bo'lish pozitsiyasi bo'lgan mijozni himoya qilishda himoyachi uning aybini yengillashtiruvchi holatlarni izlab topishga harakat qilishi lozim. M: mijozning aqli rasoligini tekshirib ko'rish, qilmish sodir etgan vaqtda u surinkali ruhiy kasalligi, ruhiy holatini vaqtinchalik buzilmaganligini o'rganib chiqib, psixologik himoya usulini olib borishi kerak.Xususan;

- javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarga e’tiroz qilishi;
- ayblanuvchining hulq-atvori va shaxsiyatini baholash;
- jazoni yengillashtiruvchi holatlar borligi va favqulodda holatlarni tan olinishiga erishishi kabi.

Sukut saqlash pozitsiyasi-bu himoyadagi shaxs ayblovgga bo‘lgan munosabatni hech qanday ifodalama yoki tergov harakatlarida ishtirok etishni xohlamasa ko‘rsatmalar berishdan bosh tortsa, advokat ham himoyasidagi shaxsning aybi sud tomonidan isbot qilingunga qadar uni aybsiz deb bilib, aybsizlik prezumpsiyasida turishi lozim. Advokat bu konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirishga yordam berib, mijozini aybsiz ekanligini tasdiqlovchi dalillarni izlab topish harakatida bo‘lishi kerak.

2. Himoyaning asosiy prinsiplari, va himoya pozitsiyasini tuzish rejasi

Himoyaning asosiy prinsiplari bu zarar yetkazmaslik, qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmaslik, oxirgacha borish, aybsizning aybini tan olmaslik, jabrlanuvchi bilan nizo qilmaslik va kasb etikasi qoidalarini buzmaslik kabilardir.

Himoya pozitsiyasini tanlash jarayonida jabrlanuvchining pozitsiyasini va himoyasidagi shaxsga bo‘lgan munosabatini quyidagicha baholashi mumkin:

- dushmanlik munosabatlari; qasd olish maqsadi; tajovuzkorlik.
- moddiy va ma’naviy da’volar mavjudligi.
- jabrlanuvchining igvo qilishga moyilligi.
- ayblanuvchini javobgarlikka tortilishidan manfaatdorligi.

Maboda jabrlanuvchining pozitsiyasi va shaxsiyatini o‘rganish natijasida advokat qoniqish hosil qilmagan bo‘lsa, ya’ni uning tajovuzkor kayfiyatda ekanligini mijozga ogohlantirib qo‘yish lozim. Agar jinoiy harakat guruh tomondan sodir etilgan bo‘lsa, qarama-qarshilikni keltirib chiqarmaslikka harakat qilish lozim.

Himoya pozitsiyasini tuzish rejasi muhim omillardan biri hisoblanadi:

- Ish materiallarini o‘rganib chiqish; himoyadagi shaxs bilan suhbatlashish; aybiga iqror bo‘lish yoki bo‘lmaslik haqidagi masalani hal etish; ayblov tomon versiyasini tahlil etish; barcha maqbul himoya usullarini tahlillar etish va tavsiya etish; himoya usuliga qarshi bo‘lgan mavjud dalillarni tahlil etish;

- Himoyadagi kamchiliklarini to‘ldirish; ayblov dalillarini rad etish; himoya dalillarini mustahkamlash;

• Voqeya-hodisalar ketma-ketligini idrok etish va ularga yuridik va haqiqiy jihatdan izoh berish (ayblovga qarshi himoya versiyasini qayta tuzish).

Himoya pozitsiyasini qisqa talqin etilishi ijobiy natija berishi mumkin kerakli talqinni tanlash vaqtida faqat juda muhim, zarur va asosiy narsalarga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lur edi.

3. Koalitsiyaviy hamda kolliziyaviy himoya

Amaldagi **prosessual** qonunchilik sudlanuvchi, ayblanuvchi, gumon qilinuvchining bir necha advokatga ega bo'lish huquqini beradi. Lozim hollarda ba'zi bir shaxslarning huquqlarini ikki yoki undan ortiq advokat himoya qilishi mumkin. Shuningdek, guruh tomonidan sodir qilingan ishlarni sud protsessida yoki tergov jarayonida bir necha ayblanuvchining advokatlari o'zaro hamkorlik qilishi to'g'ri keladi. Ana shunday vaziyatlarda koalitsiyaviy himoya huquqiy usulidan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

“Koalitsiya” – (coalitus, lotincha birlashgan) so'zi umumiy maqsadlarga erishish uchun ixtiyoriy birlashish, uyushish degan lug'aviy ma'noni anglatadi. Bunda mijoz, uning vakillari, boshqa advokatlar, jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi sudlanuvchilarning himoyachilari o'zaro hamkorlikda ish olib boriladi. Jinoyat ishida advokatlar koalitsiyaviy himoya usulidan qachon foydalanadilar, ularning maqsadlari, bir xil bo'lgani uchun ham hamkorlik usulidan foydalaniladi. Masalan, ba'zida shaxs moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan bo'lsa, bir necha advokatni yollaydi, yoki ishning murakkabligi, jinoyat ishi materiallari bir necha tomdan iborat bo'lsa, bir necha advokat xizmatidan foydalanish mumkin. Ba'zi paytlarda advokatning o'zi himoya ostidagi mijozning roziligi bilan amaliyotda taniqli advokatlar xizmatidan foydalanishi mumkin bo'ladi. Shunday hollarda, ya'ni koalitsiyaviy himoya usulidan foydalanish vaqtida advokatlar o'zlariga bosh advokat etib, advokatlardan birini belgilab oladilar. Ushbu jarayonda albatta bosh advokat tanlashda, advokatning kasbiy va shaxsiy sifatlari e'tiborga olinadi. Tayinlangan bosh advokatga mas'uliyatli, ya'ni himoyaning asosiy yo'nalishini ishlab chiqish, umumiy reja tuzib, qolgan advokatlarning har biriga qobiliyatiga, hayotiy tajribasiga va imkoniyatiga qarab, alohida topshiriqlar beriladi. Masalan, bir advokat qonunchilikni, ikkinchisi sud amaliyotini tahlil qilish, yana biri shikoyat va arizalarni yaxshi yozadi, boshqasi notiqlik san'ati bo'yicha qobiliyatliroq deb ishni taqsimlab beradi. Ko'p epizodli ishlar bo'yicha bosh advokat boshqa advokatlarga ayrim epizodlarni, yoki bir xil turkumdagi moddalar bilan malakalangan ishning bir qismi bo'yicha himoya qilishni topshirishi mumkin bo'ladi.

Koalitsiyaviy himoya usulidan faqatgina sudlanuvchilarning manfaatlari qarama-qarshi bo‘lmagandagina qo‘llaniladi. Koalitsiyaviy himoyada bosh advokat tayinlanadi, qaysikim, jingoiy guruhning tashkilotchisi, yetakchisi bo‘lganlikda ayblanayotgan shaxsning advokatining saylashadilar. Ba’zi hollarda boshqa ayblanuvchilar advokati ham bosh advokat etib saylanishi mumkin. Masalan, o‘zaro yaqin qarindosh bo‘lgan shaxslar odatda o‘zlarini bitta advokat himoya qilishni xoxlaydilar. Amaliyotda ushbu usulda xizmat ko‘rsatayotgan advokatlar faoliyatida ko‘pgina salbiy holatlar uchrab turibdi. Kollizitsiyaviy himoya usuliga jinoyat ishlari bo‘yicha ishtirok etib kelayotgan har bir advokat duch kelishi mumkin.

“**Kolliziya**”-lotincha “colisio”—to‘qnashuv, silsila so‘zini ya’ni qarama-qarshi kuchlar, manfaatlar, qarashlar, to‘qnashuvchi degan ma’noni anglatadi. Ushbu himoya asosan guruh shaklida sodir qilingan jinoyat ishlari bo‘yicha sudlanuvchi, ayblanuvchi, gumon qilinuvchini himoya qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, jinoiy guruh ishtirokchilaridan biri sudlanuvchi o‘ziga qo‘yilgan ayblovni inkor etib, uni boshqa bir ishtirokchi sodir etganligini e’tirof qilishi, yoki ishtirokchilardan bir ayblovni tan olib, uning ayblovni tan olmagan guruh ishtirokchisi bilan sodir etganligini aytadi. Bunday vaziyatlarda guruh shaklida sodir qilingan jinoyat ishlari bo‘yicha himoyani amalga oshirayotgan advokatlar o‘rtasida, ular o‘z mijozlarining pozitsiyasini quvvatlashga majburligi sababli kolliziyaviy himoya holati paydo bo‘ladi. Demak, bu holatda har bir advokat o‘z himoya usuli va taktikasini alohida-alohida ishlab chiqishi lozim bo‘ladi. Himoyani amalga oshirish jarayonida mijozlarning manfaatlariga raxna solmagan holda o‘zaro hamjihatlikni ta’minlashga erishish taktikasini qo‘llashlari lozim. Kolliziyaviy himoya ishtirokchisi bo‘lishi advokat mijozlarning manfaatlaridan kelib chiqib, protsess jarayonida prokuror vazifasini bajarmasligi lozim bo‘ladi. Agar shunday pozitsiyada bo‘lsa, boshqa advokatlar ham uning himoyasidagi shaxsga nisbatan shunday xatarli usullarni qo‘llashlari uchun sharoit yaratib bergan bo‘ladi. Kolliziyaviy himoya nafaqat manfaatlari qarama-qarshi bo‘lgan sudlanuvlar va ularning advokatlari, advokat maqomiga ega bo‘lmagan jamoat himoyachisi, qonuniy vakillari bilan ham yuzaga kelishi mumkin.

1.3.2-a Blis-so‘rov bo‘yicha savollar;

1. Himoya pozitsiya usuli qachondan boshlab tanlanadi ?
2. Himoya pozitsiya usullaridan qaysilarini bilasiz ?
3. Sukut saqlash pozitsiyasida advokatning pozitsiyasi qanday bo‘lishi kerak?

4. Qisman aybdorlik pozitsiyasida advokat aybnomaning nimasiga nisbatan e'tiborini qaratishi mumkin?

5. Himoya pozitsiyasi rejasi nimalarni inobatga olib tuziladi ?

6. Kolliziyaviy himoyada advokatlar qanday ish taktikasi orqali harakat qilishadi ?

7. Koalitsiyaviy himoya usulidan qanday manfaatlarda qo'llaniladi ?

8. Himoya pozitsiyasini qisqa talqin etilishi natijasida nimalarga erishishi mumkin ?

1.3.2-b. Og'zaki nazorat uchun savollar

1. Aybsizlik pozitsiyasi tanlanganda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

2. Qisman aybdorlik pozitsiyasida advokat qanday pozitsiyada bo'ladi?

3. Aybiga to'liq iqror bo'lish va sukut saqlash pozitsiyasidan nimasi bilan farq qiladi?

4. Kolliziya so'zi qanday ma'noni anglatadi?

5. Koalitsiyaviy himoya usulida advokatlar qaysi usullardan foydalanadilar?

6. Himoyaning asosiy prinsiplari nimalardan iborat ?

1.3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

• **Takrorlash va mashqlar:** qaytarish, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta tayyorgarlik ko'rish, berkitish, eslab qolish.

• **Yangi materiallarning mustakil asosi:** yangi adabiyotlar, Internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar tuzish.

• **Ilmiy xarakterdagi ishlar:** muammoli vaziyatlar, testlar, savollar, topshiriq va slaydlarni tuzish.

1.3.4. Topshiriq kartochkalari uchun testlar

1. Himoya pozitsiyasini tanlash usullari:

A) aybsizlik pozitsiyasi, aybdorlik pozitsiyasi, qisman aybdorlik pozitsiyasi, sukut saqlash pozitsiyasi

B)) aybsizlik pozitsiyasi, qisman aybdorlik pozitsiyasi, sukut saqlash pozitsiyasi, yuqori tashkilotlarga ariza-shikoyat yozish potzitsiyasi.

C) yuqori tashkilotlarga ariza-shikoyat yozish pozitsiyasi, sukut saqlash pozitsiyasi, aybdorlik pozitsiyasi.

D) sukut saqlash pozitsiyasi, yuqori tashkilotlarga ariza-shikoyat yozish pozitsiyasi, aybsizlik pozitsiyasi.

2. Himoyaning asosiy prinsiplari va himoya pozitsiyasini tuzish rejasi

A) zarar yetkazmaslik, qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmaslik, oxirigacha borish, aybsizning aybini tan olmaslik, jabrlanuvchi bilan nizo qilmaslik va kasb etikasi qoidalarini buzmaslik.

B) qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmaslik, oxirigacha borish, aybsizning aybini tan olmaslik, jabrlanuvchi bilan nizo qilmaslik va sud jarayonida yutib chiqish.

C) huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ishtirok etish, oxirigacha borish, aybsizning aybini tan olmaslik, jabrlanuvchi bilan nizo qilmaslik va sud jarayonida yutib chiqish.

D) aybsizning aybini tan olmaslik, jabrlanuvchi bilan nizo qilmaslik va kasb etikasi qoidalarini buzmaslik, mijozi qilgan jinoyatni oshkor etish.

3. Koalitsiya himoyada advokatlarning umumiy maqsadlari nimalardan iborat

A) ixtiyoriy birlashish, uyushish, himoyachilar o‘zaro hamkorlikda ish olib borishi;

B) uyushish, himoyachilar o‘zaro hamkorlikda ish olib borishi, sud jarayoniga tazyiq o‘tkazish.

C) ixtiyoriy birlashish, o‘z manfaatlari yo‘lida hamkorlik qilish.

D) himoyachilar o‘zaro hamkorlikda ish olib borishi, sud majlisini o‘tkazishga xalaqit berish yo‘lida birlashishi.

4. Himoya pozitsiyasini tuzish rejasining muhim omillari

A) ish materiallarini o‘rganib chiqish, himoyadagi shaxs bilan suhbatlashish, aybiga iqror bo‘lish yoki bo‘lmaslik haqidagi masalani hal etish.

B) ayblov tomon versiyasini tahlil etish, himoya usuliga qarshi bo‘lgan mavjud dalillarni tahlil etish, himoyadagi kamchiliklarini to‘ldirish, ayblov dalillarini rad etish.

C) himoya dalillarini mustahkamlash, voqea-hodisalar ketma-ketligini idrok etish va ularga yuridik va haqqoniy izoh berish, ayblovga qarshi himoya versiyasini qayta tuzish.

D) barcha javoblar to‘g‘ri.

1.3.6. Tavsifiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Inson, uning huquqlari va erkinliklari, manfaatlari – oliy qadriyat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinganligining 13 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilgan ma‘ruzasi. Xalq so‘zi. 10- dekabr.

2005-yil

2. Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O‘zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisidagi maruzasi) -T., 30- avgust, 2007- yil.

3. Karimov I.A. «Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot barpo etish yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirishdir». (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 15 yilligiga bag‘ishlangan nutqi) Xalq so‘zi, 8- dekabr 2007- yil

4. Karimov I.A. 2008-yilda O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi. O‘zbekiston ovozi gazetasi, 12-fevral 2008- yil.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni. -T.: 26 –dekabr 1996- yil

6. Абдумажидов Г.А., Рустамбаев М.Х. и др. Адвокатская деятельность в Республике Узбекистан. В двух томах. – Т.: Консепт, 2007 г.

7. Кучерена А.Г., Адвокатура: Учебник – М.: Юрист, 2005 г.

8. Смоленский М.Б. Адвокатура в Российской Федерации. Учебник. – СПб.: Издательство «Юридический центр Пресс». 2003 г.

9. Алламуротов А.Т. Адвокатура в Республике Узбекистан. Учебное пособие. – Т.: ТДЮИ, 2006 г.

Qo‘shimcha adabiyotlar

10. Бернам У., Решетникова И.В., Прошляков Н.Д. Судебная адвокатура, - СПб., Изд-во «Санкт-Петербургского университета», 1996 г.

11. Уголовно-процессуальное право: Учебник под общей ред. проф.

12. А.Лупинской – 3-е изд-во перераб. и доп. – М.: «Юрист» 2003 г.

13. Salomov B. O‘zbekistonda advokatlik faoliyati. -T.: “Adolat”, 2000- y.

14. Защитительные речи советские адвокатов. Под. ред. М.С.Строговича, М.; Госюриздат, 1956, – С.13.

15.Ruziyeva N. Advokatning himoya nutqi haqida mulohazalar // J. Advokat 2003 yil №1 (44) – B.22.

16.B.Salomov. Jinoyat ishlarida advokatning ishtiroki. -T.: «Adolat» nashriyoti, 2007- yil.

1.3.7. Internet manbalari

- 1.<http://www.zakon.ru>
- 2.<http://www.narod.ru>
- 3.<http://www.advokat.ru>
- 4.<http://www.msal.ru>

1.4. O‘qitishning uslubiy qoidalari

1.4.1. “Insert” usuli

“**Insert**” usuli-matn bilan ishlashda talabalarning faolligini rivojlantiruvchi usuldir. Daftarning hoshiyasida (chetida)interfaol tizimi quyidagicha yoziladi.

“**Y**”-(ha) –men uchun tanish bo‘lgan ma’lumot.

“-” (ayirish belgisi) –men uchun tanish ma’lumotlarga qarama-qarshi fikrlar.

“+”- (qo‘shuv belgisi) –men uchun yangi bo‘lgan ma’lumot.

“?”- (so‘roq belgisi) –qo‘shimcha ma’lumotlar talab qiluvchi, tushunarsiz axborot.

“So‘nggi so‘zni menga qoldiring”usuli

“So‘nggi so‘zni menga qoldiring” usuli- matn o‘qilgandan so‘ng, bahs yuritish va fikrlashishni rag‘batlantiruvchi usuldir.

Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

• Talabalardan matnni o‘qish paytida matndan, ular ayniqsa qiziqarli yoki sharhlashga munosib deb hisoblaydigan parchalarni topish so‘raladi.

• Talaba parchalarni kartochka yoki varaqqa yozib oladi, bunda sahifani belgilab qo‘yishi kerak.

• Kartochka yoki varaqning orqa tomoniga talaba o‘z sharhini yozadi. U parchada berilgan fikrga norozi bo‘lishi, uni rivojlantirishi yoki o‘z xohishiga qarab biror bir narsa qo‘shishi mumkin.

• Birinchi talaba parchani izohsiz o‘qib beradi.

• Boshqa talabalar tomonidan esa o‘qib berilgan parchaga izohlar beriladi.

- Parchani tanlab olib, kartochkaga yozgan talaba dars yakunida o‘z izohini o‘qib eshittiradi. Ana shu vaziyatda **“So‘nggi so‘zni menga qoldiring”** usuli qoidasi o‘z kuchiga kiradi va bahs-munozara to‘xtatiladi.

- Boshqa parcha bilan navbatdagi talaba so‘zga chiqadi va yuqoridagi sanab o‘tilgan faoliyatlar takrorlanadi.

1.4.2. Kichik guruhlarda ishlash

- Har bir talaba o‘z o‘rtogi fikrini eshitishi, hurmat va xushmuomalada bo‘lishi.

- Har bir talaba faol ishtirok etishi, berilgan topshiriqqa nisbatan ma’suliyatli va javobgarlikni his qilishi lozim.

- Har kimga yordam ko‘rsatish kerak, qaysikim u yordamga muhtoj bo‘lsa.

- Guruh ishiga baho berish jarayonida har bir talaba faol ishtirok etishi lozim.

- O‘zgaga yordam berib o‘zimiz ham o‘rganishimiz mumkinligini har bir oquvchi-talaba bilishi kerak.(birgalikda bajaramiz yoki hammamiz yutqazamiz)

4- mavzu. SUD QARORLARI YUZASIDAN SHIKOYAT

1.1. Ma'ruza topshiriqlar rejasi

O'quv vaqti: 2 soat (ma'ruza); 2 soat (seminar mashg'uloti).

Dars turi: ma'ruza; o'tilgan mashg'ulotlarni takrorlab, bilim ko'nikmalarini mustahkamlash.

Epigrafi: "Jazo berishdan oldin har doim gunohidan o'tishning iloji yo'qmikan, deya o'ylab ko'rish kerak."

G.Lixtenberg

Ma'ruza rejasi:

- Apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlarini tayyorlashning muhim xususiyatlari

- Ishni nazorat tartibida ko'rib chiqish.

- BMTning inson huquqlari bo'yicha Qo'mitasiga shikoyat qilish tartibi.

Darsning maqsadi: talabalarga O'zbekiston Respublikasi sud tizimi haqidagi tushunchani rivojlantirish, sudning yuqori instansiyalari haqida bilim berish, sud qarorlari ustidan shikoyat berish fuqarolik jamiyatining shakllantirishda xizmat qilishi va bunda advokatlarning o'rnini tushuntirish, ularni erkin fikrlashga, huquqiy demokratik jamiyatda fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari oliy qadriyat ekanligi haqidagi bilim ko'nikmalarini hosil qilish.

Ilmiy mashg'ulotning vazifasi:

- **o'rgatuvchi:** ishtirokchilarning qatnashishini tashkil etish, yangi olingan bilimlarni takrorlash, talabalarning yuridik yordam olishi, huquqiy kafolatlar to'g'risidagi fikrlarini rivojlantirish, sud qarorlari ustidan hamma vaqt ham shikoyat berish mumkin emasligi, uning alohida jihatlari, shikoyat yozishda qaysi huquqiy holatlarga e'tibor berish kerakligi bilan tanishtirish;

- **rivojlantiruvchi:** o'quv darsligidan to'g'ri foydalanish, muhim qonun va qonun osti hujjatlari bilan ishlashni o'rganish, advokaturaga oid xalqaro huquq hujjatlarini yaxshi bilishi, tadqiq etish, shu sohaga oid bilim ko'nikmalarini hosil qilish, olingan nazariy bilimni amaliyotga qo'llash mahoratini rivojlantirish, talabalarda sud qarorlari ustidan shikoyat berish qoidalariga rioya etish usullarini shakllantirish hamda ularda ariza, shikoyat, protest yozish bo'yicha;

- huquqiy savodxonlik san'atini takomillashtirib borish.

• **Tarbiya beruvchi tomoni:** talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish, talabalarni tartib-qoidalariga rioya qilishni o'rgatish, O'zbekiston Respublikasida sud qarorlari ustidan shikoyat berish to'g'risida to'liq tushuncha berish, mavzuni talabalarga ravon, ular uchun sodda usulda tushuntirish, shaxsda qonunlarga rioya etish, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlaridan kelib chiqib, ularda javobgarlik his tuyg'ularini tarbiyalash.

O'rganish texnologiyasi

• **o'qitish usullari;** ma'ruza, aqliy hujum, klaster, popuk, usullaridan foydalanish, jonli muloqot, yuridik atamalarga izohlar berish.

• **o'rganish turlari:**og'zaki testlar orqali tushuntirish, guruhlar, jamoaviy, oldindan.

• **o'rganish yo'nalishlari:** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, amaliy ishlash usullari, sud jarayonlariga oid materiallar, slaydlar.

• **o'rganish talablari:** auditoriya texnik yoritgichlari bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish.

• **monitoring va baholash:**o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish.Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida talabalarning bilimlari baholanadi. (og'zaki nazorat, savol-javoblar, blis-so'rov.)

Pedagogik vazifalar:

• O'quv jarayonida fanning ahamiyati va uning o'rni bilan tanishtirish.

• O'quv fanining tuzilishi va tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti to'g'risida tushuntirishlar berish.

• Predmet sohasida ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli; o'qitish jarayonini tashkillashtirish jarayonining umumiy sxemasini tasniflash.

• O'qish jarayonining umumiy tasniflash.

• O'qitish texnologiyasini rivojlantirish istiqbollari tasniflash.

O'quv faoliyati natijalari:

• Premetning nomlanishi va vazifasini belgilash.

• Faoliyatdagi alohida usuli va tashkiliy jihatlarini ochib berish.

- O‘quv faninig umumiy va tashkiliy tuzilishlari to‘g‘risida atroflicha tushuntirish berish.
- Sud qarorlari yuzasidan beriladigan shikoyatning asosiy tushunchalari va fanning asosiy yo‘nalishini beradi.
- Nazariy bilimlarning to‘laligi, tizimliliigi, amaliyligi.
- Amaliy topshiriqlarni bajarishda o‘rganilgan tushunchalardan foydalana olish.
- Kursning asosiy mazmunli yo‘nalishi bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarga ega bo‘lishi.

1.2.Ma’ruzaning xronologik kartasi

1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotlariga kirish (15 daqiqa)

• **o‘qituvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli manbalar berish, ma’ruza haqida tushuntirish berish, o‘quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlar to‘g‘risida ma’lumot berish, dars davomida talabalar bilimini baholab borish usullari haqida tushuntirishlar berish;

• **talabaniing faoliyati:** darsga tayyorgarligi, ma’ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar bilan tanishishi; (talabalar soni, tashqi ko‘rinishi, o‘quv qo‘llanmalar va qurollar);

• **uslublar, shakllar, usullar:** yo‘riqnoma, oldindan so‘rash, topshiriq kartochkalari;

2-bosqich. Asosiy qism (55 daqiqa)

• **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuga kirish, o‘tgan mavzularni yodga olish, ma’ruza matnini tarqatish, uni yaxshi o‘zlashtirib olishni taklif qilish, mavzu rejalarining har biriga alohida tushuntirish berish, aqliy hujum, klaster, B/B/B/ jadval va popuk usullaridan foydalanish, jonli muloqot, yuridik atamalarga izohlar berish, slaydlar orqali atroflicha tushuntirib berish va ma’ruza matnini o‘qish;

• **talabaniing faoliyati:** bilimlarini mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, tushunmagan iboralar bo‘yicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish.

• **uslublar, shakllar, usullar;** oldindan so‘rash, blis-so‘rov, aqliy hujum, “Klaster” usuli qoidasidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

- **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash, talabalar fikrini asosiy mavzuga qaratish, dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan faol talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash.
 - **talabaning faoliyati:** ishni tahlil qilish, dars jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilash, mustaqil ish mavzusini yozib olish.
- uslublar, shakllar, usullar:** guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1.3. O‘quv –uslubiy materiallar

Ma’ruza rejasi:

- Apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlarini tayyorlashning muhim xususiyatlari
- Ishni nazorat tartibida ko‘rib chiqish.
- BMTning inson huquqlari bo‘yicha Qo‘mitasiga shikoyat qilish tartibi.

Tayanch iboralar: sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmlari, shikoyat yoki protest bildirish, hukmning rasmiylashtirilishi, shakli va mazmun-mohiyati, jinoyat-prosessual qonunchiligi, shikoyat protest bildirilgan sana, arizachining imzosi, nazorat tartibida berilgan shikoyat, 1995-yil 31- avgustda Oliy Majlis qarori, ingliz, fransuz, ispan, arab, xitoy, rus tillari, shaxsning huquqi buzilganda, ishtirokchi davlat uni huquqiy himoyasiga olishi.

1.3.1. Ma’ruza matni

1. Apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlarini tayyorlashning muhim xususiyatlari

Ma’lumki, JPKning 497¹-moddasiga ko‘ra, sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan appelyatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest bildirish mumkin. Appelyatsiya (kassatsiya) tartibda ish ko‘rilganda, xuddi birinchi instansiya bosqichi kabi ish mazmunan ko‘rib chiqiladi. JPKning 497²-moddasida belgilanishicha, mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan imkoniyat berishga, prokuror va uning o‘rinbosarlari protest bildirishga haqlidir.

Apellyatsiya, kassatsiya shikoyatini tayyorlashdan oldin bu ishda qatnashgan advokat bilan bir qatorda oldingi bosqichda qatnashmagan

advokat ham qatnashishi mumkin. Agar advokat o'z mijozi bilan tuzilgan shartnomada faqat birinchi instansiya ishida qatnashishga kelishilgan bo'lsa ham, mijoz talab qilsa, apellyatsiya, katssasiya shikoyatini yozib berishga majbur hisoblanadi. Ish materiallarini o'rganish sud hukmini tahlili bilan boshlanadi, ammo sud hukmi qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi lozimligini unutmaslik kerak. Advokat bunda asosan, quyidagilarga e'tiborini qaratishi lozim:

Hukmning rasmiylashtirilishi, shakli va mazmun-mohiyatini, jinoyat-prosessual qonunchiligi, jinoyat ish materiallarini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tegishli qarorlari va rahbariy ko'rsatmalari bilan mos kelishi kabi holat.

Advokat O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sud hukmi" to'g'risidagi (1997- yil 2 -may 2-sonli qarori va "Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini birinchi bosqich sudida muhokama etish jarayonda prosesual qonunchilikka rioya qilishi to'g'risida"gi (1997- yil 27- avgust 12-sonli) qarori⁶ (ularga keyinchalik kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birgalikda) bilan yaqindan tanishgan bo'lsagina, ish materiallarini bir-biriga solishtirib, apellyatsiya (kassatsiya) shikoyatida ifoda qilinishi lozim bo'lgan prosesual qonunchilik normalarining buzilganligiga misollar keltirishi mumkin bo'ladi.

JPKning 479¹-moddasida apellyatsiya shikoyatining yozishda ba'zi bir belgilangan talablar mavjud bo'lib, ular apellyatsiya shikoyai va protestida quyidagilar albatta ko'rsatilishi lozim:

- shikoyat, protest yo'llanayotgan sudning nomi; shikoyat bergan shaxs, uning prosesual mavqei, yashash joyi, yoki turar manzili to'g'risidagi ma'lumotlar; hukmni chiqargan sudning nomi, sana, shikoyat yoki protest bildirayotgan hukm kimga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, shu shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar;

- shikoyat protest bergan shaxsning vajlari, uning fikricha, qarorning noto'g'riligi nimadan iborat ekanligi hamda iltimosning mohiyati; arizachi o'z talablarini asoslanayotgan va apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan tekshirishi lozim bo'lgan dalillar, birinchi sud instansiya sudida tekshirilmagan dalillar;

- shikoyat protestga ilova qilinayotgan materiallar ro'yxati; shikoyat protest bildirgan sana, arizachining imzosi.

Sud ishini kassatsiya va nazorat tartibida ko'rishda, JPKning 482-moddasi talablariga ko'ra, shikoyat yoki protestda bayon etilgan vajlar bilan chegaralanmasdan, ishni barcha mahkum (oqlangan shaxs)larga, shu jumladan, shikoyat bermagan hamda ustidan shikoyat yoki protest

⁶ Қаранг: Баҳром Саломов. Жиноят ишларида адвокатнинг иштироки. -Тошкент «Адолат». 2007. 6-164.

bildirmaganlarga nisbatan ham to‘la hajmda tekshirishga majbur.⁷ Sudlangan shaxs, uning himoyachisi keltirilgan shikoyatni asoslantirib berish uchun sudga yangi materiallar yoki o‘zlari ko‘rsatgan guvohlar va eksperimentlarni sudga chaqirtirishi mumkin. Apellyatsiya (kassatsiya) bosqichining sud majlisida advokat faqatgina shikoyati tafsilotlarini tushuntirib berish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki u jinoyat prosessual munosabatlarda mustaqil va teng huquqli subyekti bo‘lganligidan foydalanib, sud tarkibi va prokurorni rad etishi, qo‘shimcha materiallar (tavsifnoma, mukofotlari, nogironligi va boshqa hujjatlar), sud majlisida ishtirokchilar tomonidan kiritilgan iltimosnoma, ular tomonidan sudga taqdim etilayotgan materillar bilan tanishib chiqishga va barcha prosessual qonunchilik talablarida faol himoyani amalga oshirish zarur. Advokat ikkinchi sud bosqichida himoya nutqi aksariyat shikoyatda keltirilgan norozilik tomonlarini qamrab olgan bo‘lishi kerak.

Birinchi bosqich sudning qarorlarini o‘zgartirishga asos bo‘lib, JPKning 484-moddasida nazarda tutilgan quyidagi holatlar, ya’ni sud tergovining to‘liq emasligi, yoki bir tomonlama olib borilganligi, hukmda bayon qilingan sud xulosalari ish haqiqiy holatlariga muvofiq emasligi JPK, JK normalarining buzilganligi, noto‘g‘ri qo‘llanilganligi, jazoning adolatsizligi hisoblanadi. Agar mijoz qamoqda saqlanayotgan bo‘lsa, uning apellyatsiya sudiga ishtirokini ta’minlashni iltimos qilib, advokat sudiga topshirish lozim. Advokat bergan apellyatsiya (kassatsiya) shikoyati himoyasidagi shaxs tomonidan istagan vaqtda qaytarib olinishi mumkin. Agar ish apellyatsiya (kassatsiya) tartibida ko‘rib chiqilmasdan oldin mijoz o‘zining va advokatining hukmdan norozi bo‘lib yozilgan shikoyatlarini ko‘rmasdan oqibatsiz qoldirish haqida ariza bilan murojaat qilgan bo‘lsa, shikoyat berilmagan hisoblanib, ish apellyatsiya (kassatsiya) sud majlisida ko‘rib chiqilmaydi. Agar prokuror protesti, jabrlanuvchi yoki boshqa sudlanuvchilarning shikoyati bo‘lmagan holatlarda shunday tartibda qo‘llaniladi.

2. Ishni nazorat tartibida ko‘rib chiqish

Ishni nazorat tartibida ko‘rib chiqish uchun ish avval apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan bo‘lishi kerak. Ishni nazorat tartibida ko‘rib chiqishga asoslar jiddiy bo‘lgan taqdirda nazorat protesti bunga haqli bo‘lgan mansabdor shaxs tomonidan bildirilishi mumkin. Agar ish apellyatsiya (kassatsiya) tartibida ko‘rib chiqilgan, uning natijasidan mijoz va

⁷ Қаранг: Ўзбекистон Республика Олий Суди Пленумининг «Жиноят ишларининг кассация ва нazorat тартибида кўриш амалиёти ҳақида»ги 2001 йил 1-июль 5-сон қарорининг 10-банди Ўзбекистон Республикаси Олий Суди пленуми қарорлари тўплами. Иккинчи жилд. Тошкент. Адолат, 2006.

advokat qanoatlanmasa, advokat nazorat tartibida protest bildirish haqida ariza yozishi mumkin bo‘ladi. Nazorat tartibida ishni ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bunda advokat tomonidan ko‘rib chiqiladigan hujjatlar miqdori ko‘proq bo‘lib, ular yozilgan ariza (iltimosnoma)da o‘z aksini topgan bo‘lishi shart. Ariza (iltimosnoma)da ishning mazmun-mohiyati ochib berilgan, hukmning qaror qismi to‘laligicha aks ettirilishi maqsadga muvofiq. Nazorat tartibida berilgan shikoyat kuchga kirgan sud hukmini o‘zgartirishi uchun o‘ta kuchli, asosli dalillar bo‘lishi va bunda advokat vazifasiga alohida yondashuvi hamda kuchli malakaviy ko‘nikmaga ega bo‘lishi lozim.

Nazorat tartibidagi shikoyatni tuzishda va apellyatsiya (kassatsiya) tartibida ko‘rib chiqilgan jarayonida sud tomonidan yo‘l qo‘yilgan prosessual kamchiliklarni ko‘rsatayotganda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini apellyatsiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida”gi 2006-yil 3- fevral 2-sonli va “Jinoyat ishlarini kassasiya va nazorat tartibida ko‘rish amaliyoti haqida”gi 2001 yil 1-iyundagi 5-sonli qarorlaridan advokatning foydalanishi samarali bo‘ladi.

Nazorat tartibida hukmni bekor qilish va o‘zgartirish asoslari xuddi apellyatsiya va kassatsiya tartibi shikoyat keltirish asoslari bilan bir xilda bo‘ladi. Nazorat tartibida berilgan shikoyatni xulosa qismida hukmni va apellyatsiya (kassatsiya) bosqichining ajrimini o‘zgartirish; nazorat tartibida protest bildirish va ishni talab qilib olish haqida advokatning asoslangan iltimosi bo‘lishi lozim. Advokat, sud jinoyat ishini apellyatsiya (kassatsiya) nazorat tartibida ko‘rgan vaqtda mijoziga nisbatan qo‘llanilgan jazo ko‘pligi jazo chorasi miqdori o‘zgarimasada, ammo u ayblangan moddaga nisbatan og‘irroq jinoyatga doir qonun moddalarini qo‘llanishiga rozi emasligini ma’lum qilishi shart. Kassasiya va nazorat instansiya sudi agar birinchi instansiya sudi tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni to‘ldirish va prosessual qoidabuzarliklarni bartaraf etish imkoniyati mavjudligi ma’lum bo‘lsa, qisman sud tergovni o‘tkazish va hukmga o‘zgartirish kiritishga haqlidir. Yuqori sud instansiya sudi quyi sudlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan ba’zi bir kamchiliklarni, agar asoslar yetarli bo‘lsa, mahkumni o‘ta residivist deb topishi, unga jazoni ijro etish koloniyasining qattiqroq turini belgilash huquqiga ham egadirlar.

3. BMT ning inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitasiga shikoyat qilish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil BMTga a‘zo bo‘lib kirgan kunidayoq, fuqarolarimiz ham bu qo‘mitaga shikoyat qilish huquqiga ega

bo'ldilar. O'zbekiston davlati bir necha xalqaro huquq normalari, konvensiya, deklaratsiyalarni ratifikatsiya qilgan. Shulardan 1984- yil BMT bosh assambleyasi rezolyusiyasi bilan qabul qilingan "Qiynoqlar hamda jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatlarini kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiya" sig'a 1995 yil 31 avgustda Oliy Majlis qarori bilan qo'shilgan pakt "Shaxsning fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risida" bo'lsa, "Protokol" da inson huquqlari bo'yicha BMT qo'mitasiga pakt qoidalari buzilishi oqibatida o'zini aziyat chekkan deb hisoblagan muayyan shaxslarning xabarlarini qabul qilib, ko'rib chiqish va boshqa vakolatlarini belgilab qo'yilgan.

Advokat qo'mitaga shikoyat tayyorlamoqchi bo'lganda, yuqoridagi xalqaro hujjatlarni yaxshi o'rganib, tahlil qilib olishi zarur. Ariza qo'mita tomonidan qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi uchun protokolda belgilangan moddalarga ko'ra quyidagilarga to'liq javob berishi shart hisoblanadi. Jumladan, shikoyatdagi ma'lumotlar aniq namuna bo'yicha yozilishi shart emas. Shikoyat yozma, shaxsiy imzo bilan topshiriladi. Arizada mijoz haqida to'liq ma'lumotnoma, qanday harakatlar shaxsning huquqini buzganligi ko'rsatilishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud qarorlari hamda ishga taalluqli barcha dalillar taqdim etilishi lozim.

Shikoyatda pakt yoki tegishli bitimning qaysi moddasi buzilganligini ko'rsatish va davlat qonunlari nusxasi taqdim etiladi. Shikoyat qo'mita ish yuritadigan biror til, ya'ni ingliz, fransuz, ispan, arab, xitoy, rus tillarini birida yozilib, shikoyatda taqdim etilayotgan hujjatlar tarjimai bilan yuborilsa, ishni ko'rib chiqishi tezlashishiga imkon beradi.

Arizaning maqbulligi: ariza beruvchi shaxs yoki davlat protokolga ishtirokchi bo'lgandagina ko'rib chiqiladi. Agar ariza anonim, haqoratnomuz yoki qo'mita allaqachon bu shikoyatni ko'rishni rad qilgan bo'lsa hamda mulkiy huquqni himoya qilishga oid masalalar ko'rib chiqilmaydi. Shikoyat berish uchun ma'lum muddat rasmiy belgilanmagan. Ariza asosan huquqi buzilgan shaxs tomonidan jo'natiladi. Agar bunday shaxsning imkoniyatlari cheklangan bo'lsa u holda mijoz nomidan harakat qiluvchi advokatning orderi yoki belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan vakolatnomasi bo'lishi lozim. Huquqi buzilgan shaxs bilan aloqasi bo'lmagan uchinchi shaxsn ariza berishga haqli emas hisoblanadi. Qo'mita shikoyatning ichki vositalardan foydalanilmagan bo'lsa, ko'rib chiqmaydi. (huquqni muhofaza qilish organlari yuqori organlar mansabdor shaxslar tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lishi nazarda tutiladi). Shundan so'ng ham huquqbuzarlik bartaraf etilmasa, unda berilgan arizalar nusxalari, pochta kvitansiya, kirim qilinganligini tasdiqlovchi burchakli tamg'a, mansabdor shaxslarning arizaga bergan javoblari taqdim etilishi lozim. Qo'mita yoki uning arizalari bo'yicha

ishchi guruhi arizani qabul qilish yoki qabul qilmaslik to'g'risidagi masalani hal qilmasdan shikoyat bergan shaxsdan vaqtincha cheklovlar so'rashi mumkin. Ariza bergan shaxs istagan vaqt arizasini qaytarib olishga haqlidir. Qo'mita esa arizani ko'rib chiqishni to'xtatish haqida qaror chiqarishi lozim.

Arizaga baho berish. Qo'mita berilgan arizani ko'rishni maqbul deb topsa, ariza bergan shaxsning davlatidan ushbu muammo haqida tushuntirish berish hal qilish uchun qo'llanilgan chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar so'raydi. Pakt qoidalari buzilishi bo'yicha ko'riladigan ishlarda davlat so'roviga olti oy muddat ichida javob berishi kerak. Shundan so'ng qo'mita arizaga ikki oy vaqt ichida izoh berish, yakuniy fikrni bildirib, a'zo davlatga, ya'ni muallifga ma'lum qilish kerak bo'ladi.

Qo'mitada ish ko'rilayotgan vaqt a'zo davlat va ariza bergan tomon teng sharoitda, ya'ni har ikkala tomonga ham o'z dalillarini sharhlashga imkon beriladi. Muddatlar, ya'ni ishni ko'rib chiqishga maqbul yoki maqbul emas deb topish uchun 12 oydan 18 oygacha vaqt kerak bo'ladi. Ish mazmunan ko'rib chiqilishi uchun a'zo davlat, arizaning hamkorlik darajasiga qarab 1-2 yil davom etishi mumkin.

Agar ushbu ish ko'rib chiqilayotgan vaqtda shikoyat qilgan shaxsga nisbatan tuzatib bo'lmas darajada zarar keltiriladigan bo'lsa, qo'mita istalgan vaqt a'zo davlatga murojaat etib dastlabki choralarni ko'rishni so'raydi. Masalan, o'lim jazosiga hukm qilingan mahkum (yoki uning himoyachisi)ning shikoyati ko'rib chiqilmaguncha o'lim jazosini to'xtatib turishni so'raydi. Qo'mita paktga asosan shaxsning huquqlari ishtirokchi davlat tomonidan buzilgan deb qaror qabul qilganda, qo'mita tavsiyalarini bajarish uchun ushbu davlatga 3 oy muddat ichida ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumot taqdim etishni taklif qiladi. Bu taklif paktning 2-moddasi 3-bandiga asosan so'raladi. Unga ko'ra, shaxsning huquqi buzilgan taqdirda ishtirokchi davlat uni tezlik bilan huquqiy himoyasiga olishi lozim.

1.3.2-a Blis-so'rov bo'yicha savollar;

1. Apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlarini tayyorlashning muhim xususiyatlari

nimalardan iborat ?

2. Apellyatsiya shikoyatini yozishda advokat qaysi talablarga e'tiborini qaratishi lozim?

3. Nazorat tartibida ishni ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat ?

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini apellyatsiya tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida"gi qarori qachon qabul qilingan? .

5 O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Jinoyat ishlarini kassatsiya va nazorat tartibida ko'rish amaliyoti haqida"gi qarori qachon qabul qilingan?

6. BMT ning inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga shikoyat qilish tartibi qanday amalga oshiriladi?

7. Advokat qo'mitaga shikoyat tayyorlamoqchi bo'lganda nimalarga alohida e'tiborini qaratishi lozim?

8. BMT ning inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga shikoyat berish uchun ma'lum muddat belgilanganmi?

1.3.2-b. Og'zaki nazorat uchun savollar

1. Apellyatsiya (kassatsiya) bosqichining sud majlisida advokat jinoyat prosessual munosabatlarda qanday huquqlardan foydalanishi mumkin?

2. Advokat bergan apellyatsiya (kassatsiya) shikoyati himoyasidagi shaxs tomonidan qaytarib olinishi mumkinmi?

3. Nazorat tartibida berilgan shikoyat qanday kuchga ega bo'lishi kerak?

4. Ishni ko'rib chiqishga maqbul yoki maqbul emas deb topish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?

5. Qo'mita arizaga qancha vaqt ichida izoh berishi va yakuniy fikrni bildirishi kerak bo'ladi.?

6. "Shaxsning fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risida"gi xalqaro paktga davlatimiz qachondan boshlab a'zo bo'lgan?

7. Pakt qoidalari buzilishi bo'yicha ko'riladigan ishlarda davlat so'roviga necha oy muddat ichida javob berishi kerak.?

1.3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

• **Takrorlash va mashqlar:** qaytarish, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta tayyorgarlik ko'rish, berkitish, eslab qolish.

• **Yangi materiallarning mustaqil asosi;** yangi adabiyotlar, Internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar tuzish.

• **Ilmiy xarakterdagi ishlar:** muammoli vaziyatlar, testlarni, savollarni, topshiriq va slaydlarni tuzish.

1.3.4. Topshiriq kartochkalari uchun testlar

1.Qonunchilikning qaysi moddasiga ko‘ra sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmlari ustidan appelyatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest bildirish mumkin

- A) JPKning 497¹ moddasi bo‘yicha;
- B) JK ning 213-moddasi bo‘yicha;
- C) Mehnat Kodeksining 19-moddasi bo‘yicha;
- D)O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi bo‘yicha.

2.Birinchi bosqich sudining qarorlarini o‘zgartirishga nimalar asos bo‘ladi

- A) sud tergovining to‘liq emasligi, yoki bir tomonlama olib borilganligi, hukmda bayon qilingan sud xulosalari ish haqiqiy holatlariga muvofiq emasligi; JPK, JK normalarining buzilganligi, noto‘g‘ri qo‘llanilganligi, jazoning adolatsizligi hisoblanadi
- B) JPK, JK normalarining buzilganligi, noto‘g‘ri qo‘llanilganligi, jazoning adolatsizligi hisoblanadi ;
- C) hukmda bayon qilingan sud xulosalari ish haqiqiy holatlariga muvofiq emasligi,mansabdor shaxslar tomonidan tazyiq o‘tkazilganida.
- D) A,V

3.Nazorat tartibida berilgan shikoyat kuchga kirgan sud hukmini qanday hollarda o‘zgartirishi mumkin

- A) o‘ta kuchli, asosli dalillar bo‘lishi va bunda advokat vazifasiga alohida yondoshuvi hamda kuchli malakaviy ko‘nikmaga ega bo‘lishi;
- B) advokat vazifasiga alohida yondashuvi hamda kuchli malakaviy ko‘nikmaga ega bo‘lishi, sudya advokatning tanishi bo‘lishi;
- C)o‘ta kuchli, notiqlik san‘atiga ega, ishbilarmon bo‘lishi;
- D) malakaviy ko‘nikmaga ega bo‘lishi, sudya advokatning tanishi hamda tadbirkor bo‘lishi.

4. Qo‘mitada ish mazmunan ko‘rib chiqilishi uchun a‘zo davlat arizani qancha vaqt davomida ko‘rib chiqishi mumkin

- A) arizaning hamkorlik darajasiga qarab 1-2 yil davom etishi mumkin;
- B) arizaning hamkorlik darajasiga qarab 2-3 yil davom etishi mumkin;
- C) arizaning hamkorlik darajasiga qarab 4-5yil davom etishi mumkin;

D) arizaning hamkorlik darajasiga qarab 6 oy davom etishi mumkin.

1.3.6. Tavsia etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Adolat – qonun ustuvorligida” Xalq so‘zi. 30- avgust 2001 yil.

2. Karimov I.A. Inson, uning huquqlari va erkinliklari, manfaatlari – oliy qadriyat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini qabul qilinganligining 13 yilligiga bag‘ishlangan tantanali ma’rosimda qilgan ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 10- dekabr.

2005- yil

3. O‘zbekiston Respublikasida Advokatlik faoliyati. Darslik. Ikki jildli, mualliflar jamoasi. “Konsaudininform” nashri, -T., 2007 y.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni. - T.:1996 yil 26 dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy huquqlari to‘g‘risida”gi qonuni, T., 26 -dekabr 1997.

Qo‘shimcha adabiyotlar

6. **Рустамбаев М.Х., Никифорова Е.Н.** Правоохранительные органы. Учебник – Т.: ТДЮИ, 2003 г.

7. **Salomov B.** O‘zbekistonda advokatlik faoliyati. -T.: «Adolat», 2000 .

8. Уголовный процесс. Общая часть (под общей редакции дос.Никифоровой Е.Н.) -Т.: «Адолат», 2000 г.

9. **Sharofiddinov A.O.** Eng muhim-himoya huquqi. Advokat jurnali, 2003 №2
10. **To‘laganova G.** Jinoyat prosessida himoyachining ishtiroki. O‘quv qo‘llanma. T.: TDYuI, 2005 .

1.3.7. Internet manbalari

1. <http://www.zakon.ru>

2. <http://www.narod.ru>

3. <http://www.advokat.ru>

4. <http://www.msal.ru>

1.4. O‘qitish uslubiy qoidalar

1.4.1.»Klaster» usuli

“Klaster”so‘zi g‘uncha, bog‘lam ma’nosini anglatadi.Klasterlarga ajratishni da’vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag‘batlantirish uchun qo‘llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg‘otish, mavjud bilimlarni ruyobga chiqarishga qaratilgan strategiya bo‘lib, muayyan mavzu bo‘yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.Biror mavzuni o‘rganishni boshlash paytida “klaster”lar tuzishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. **“Klaster”usulining qoidalari**

“Klaster” tuzish ketma-ketligi:

- auditoriya yozuv taxtasi o‘rtasidagi katta qog‘oz varag‘iga “tayanch” so‘zi yoki so‘z birikmasini yozing.
- sizning fikringizcha, bu mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zlar yoki so‘z birikmasini yozib chiqing.
- tushuncha va g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni ko‘rsating.
- eslagan variantingizning barchasini yozing.
- “klaster” tuzishda guruhdagi barcha talabalar faol ishtirok etishiga erishing.
- shu guruh uchun g‘oyalar o‘zagi bo‘lib xizmat qiladi.
- “klaster” usuli talabalar faolligini oshirishga, charchoqni yo‘qotishga, g‘oyani izlashga sharoit yaratadi.

1.4.2. Kichik guruhlarda ishlash

- Har bir talaba o‘z o‘rtog‘i fikrini eshitishi, hurmat va xushmuomalada bo‘lishi;
- Har bir talaba faol ishtirok etishi, berilgan topshiriqqa nisbatan mas’uliyatli va javobgarlikni his qilishi lozim;
- Har kimga yordam ko‘rsatish kerak, qaysikim u yordamga muhtoj bo‘lsa;
- Guruh ishiga baho berish jarayonida har bir talaba faol ishtirok etishi lozim.
- O‘zgaga yordam berib o‘zimiz ham o‘rganishimiz mumkinligini har bir oquvchi- talaba bilishi kerak.(birgalikda bajaramiz yoki hammamiz yutqazamiz)

5- mavzu. XORIJIY DAVLATLARDA ADVOKATURA

1.1. Ma'ruza topshiriqlar rejasi

O'quv vaqti: 2 soat (ma'ruza); 2 soat (seminar mashg'uloti).

Dars turi: ma'ruza; o'tilgan mashg'ulotlarni takrorlab, bilim ko'nikmalarini mustahkamlash.

Epigrafi: "Men uchun qaysi tomon kuchliligining ahamiyati yo'q, muhimi huquq kim tomonidaligida." **V.Gyugo**

Ma'ruza rejasi:

- .Rossiya Federatsiyasida advokatura faoliyati.
- .Fransiya advokaturasi.
- .Angliya advokaturasi.

Darsning maqsadi: talabalarga rivojlangan xorijiy davlatlar advokatura institutlari bilan O'zbekiston Respublikasi advokatura institutlari o'xshashligi, qonunlari haqida bilim berish, advokatlarning jamiyatdagi o'rnini tushuntirish, ularni erkin fikrlashga, shu soha to'g'risidagi bilimlarini yuzaga chiqarish, demokratik rivojlangan mamlakatlarda advokatura institutining o'rnini haqidagi bilim ko'nikmalarni hosil qilish.

Ilmiy mashg'ulotning vazifasi:

•**o'rgatuvchi:** ishtirokchilarning qatnashishini tashkil etish, yangi olingan bilimlarni takrorlash, talabalarning yuridik yordam olish, huquqiy kafolatlar to'g'risidagi fikrlarini rivojlantirish, rivojlangan davlatlar advokatura institutlari va ularning alohida jihatlari to'g'risidagi bilim ko'nikmalarini yuzaga chiqarish. **rivojlantiruvchi:** o'quv darsligidan to'g'ri foydalanish, muhim qonun va qonun osti hujjatlari bilan ishlashni o'rganish, xorijiy davlatlar advokatura institutlariga oid me'riy hujjatlardan to'g'ri foydalana bilish, tadqiq etish, shu sohaga oid o'z takliflar kiritish, olingan nazariy bilimni amaliyotga qo'llash mahoratini rivojlantirish, talabalarda xorijiy davlatlarda inson huquq va erkinliklari kafolatlari to'g'risidagi bilimlarini shakllantirish hamda xalqaro huquq normalariga rioya etish borasidagi bilimlarini takomillashtirib borish.

•**Tarbiya beruvchi tomoni:** talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish, talabalarni tartib-qoidalarga rioya qilishga o'rgatish, O'zbekiston Respublikasi advokatura institutining rivojlangan xorijiy davlatlar advokatura institutlari bilan qiyosiy tahlili to'g'risida to'liq tushuncha berish, mavzuni talabalarga ravon, ular uchun sodda usulda tushuntirish, shaxsda

qonunlarga rioya etish, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlaridan kelib chiqib, xalqaro shartnomalardan foydalanish doirasida javobgarlik his-tuyg'ularini tarbiyalash.

O'rganish texnologiyasi

- **o'qitish usullari;** ma'ruza, zigzag №1, №2, usuli, klaster, popuk, usullaridan foydalanish, og'zaki muloqot, yuridik atamalarga izohlar berish.

- **o'rganish turlari:** og'zaki testlar orqali tushuntirish, kichik guruhlarda ishlash, jamoaviy, oldindan.

- **o'rganish yo'nalishlari:** ma'ruza matni, xorijiy advokatura faoliyatiga oid ma'lumotlar, mavzuga oid slaydlar.

- **o'rganish talablari:** auditoriya texnik yoritgichlari bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish.

- **monitoring va baholash:** og'zaki nazorat, savol-javoblar, blis-so'rov.

Pedagogik vazifalar:

- O'quv jarayonida fanning ahamiyati va uning o'rni bilan tanishtirish,

- O'quv fanining tuzilishi va tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tavsiloti to'g'risida tushuntirishlar berish.

- Predmet sohasida ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli; o'qitish jarayonini tashkillashtirish jarayonining umumiy sxemasini tasniflash.

- O'qish jarayonini umumiy tasniflash.

- O'qitish texnologiyasini rivojlantirish istiqbollari tasniflash.

O'quv faoliyati natijalari:

- Fanning nomlanishi va vazifasini belgilash.

- Faoliyatdagi alohida usuli va tashkiliy jihatlarini ochib berish.

- O'quv faninig umumiy va tashkiliy tuzilishlari to'g'risida atroflicha tushuntirish berish.

- Xorijiy davlatlar advokaturasi faoliyatining asosiy tushunchalarini, fanning asosiy o'unalishini beradi.

- Nazariy bilimlarning to'laligi, tizimliliigi, amaliyligi.

- Amaliy topshiriqlarni bajarishda o'rganilgan tushunchalardan foydalana olish.

- Kursning asosiy mazmunli y o‘nalishi bo‘yicha ularni boshlangich bilimlarga ega bo‘lishi.

1.2.Ma’ruzaning xronologik kartasi

1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotlariga kirish (15 daqiqa)

• **o‘qituvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli manbalar berish, ma’ruza haqida tushuntirish berish, o‘quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlari to‘g‘risida ma’lumot berish, dars davomida talabalar bilimini baholab borish usullari haqida tushuntirishlar berish.

• **talabaning faoliyati:** darsga tayyorgarligi, ma’ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar bilan tanishishi; (talabalar soni, tashqi ko‘rinishi, o‘quv qo‘llanmalar va qurollar)

• **uslublar, shakllar, usullar:** yo‘riqnoma, oldindan so‘rash, topshiriq kartochkalari.

2-bosqich. Asosiy qism (55 daqiqa)

• **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuga kirish, o‘tgan mavzularni yodga olish, ma’ruza matnini tarqatish, uni yaxshi o‘zlashtirib olishni taklif qilish, mavzu rejalarini har biriga alohida tushuntirish berish, aqliy hujum, klaster, popuk, usullaridan foydalanish, jonli muloqot, yuridik atamalarga izohlar berish, slaydlar orqali atroflicha tushuntirish berish va ma’ruza matnini o‘qish;

• **talabaning faoliyati:** bilimlarini mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, tushunmagan iboralar bo‘yicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish.

• **uslublar, shakllar, usullar;** oldindan so‘rash, blis-surov, aqliy hujum, Zigzag№1, Zigzag№2 usulidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism (10 daqiqa)

• **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash, talabalar fikrini asosiy mavzuga qaratish, dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan faol talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash.

• **talabaning faoliyati:** ishni tahlil qilish, dars jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilash, mustaqil ish mavzusini yozib olish.

uslublar, shakllar, usullar: guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1.3. O‘quv –uslubiy materiallar

Ma’ruza rejasi:

- .Rossiya Federatsiyasida advokatura faoliyati.
- .Fransiya davlati advokaturasi.
- Anglya davlati advokaturasi.

Tayanch iboralar: rus advokaturasi, sovet advokaturasi, huquqiy institut, imperator Aleksandr II, kamida ikki yil mehnat staji, chet davlat huquqi masalalari, advokat kabineti, advokat uyi, Fransiya advokaturasi tizimi, Dekret, Milliy advokatura kengashi, tamoyillar bo‘limida, Anglya huquq tizimida advokatura, solisitorlar, barristerlar, sud xizmatchisi, boshqaruv organi Senat.

1.3.1. Ma’ruza matni

1.Rossiya Federatsiyasida advokatura faoliyati

Advokaturani o‘rganishda metodologiyadan foydalanish kutilmagan natijalarga olib keladi. “Advokatura metodologiyasi – bu uning xossalarini o‘rganish usullari, advokaturaning ayrim jihatlari va xususiyatlarining mavhum nomlarini emas, balki uning haqiqiy asoslarini ilmiy bilish va aniqlashning izchil yo‘lidir” deb ta’kidlaydi rossiyalik olim Yu.F.Lubshev. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasida advokatura faoliyatini o‘rganish davomida xorijiy mamlakatlarida advokatlik faoliyatini bilish ham bizga bu yo‘nalishni kengroq tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shulardan biri Rossiya Federatsiyasi advokatura faoliyati bo‘lib, Rossiyada 2004 yil 20 noyabrda advokaturani tashkil topganligini 140 yilligi keng nishonlandi. Rossiyada advokatura 1917 yillarda rus advokaturasi, 1917-yildan 1991-yil oxirigacha esa sovet advokaturasi o‘z faoliyatini yuritdi. 1992 yildan boshlab Rossiya Federatsiyasining advokaturasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Rossiyada advokatura huquqiy institut sifatida imperator Aleksandr II (1864 davrida) paydo bo‘lgan. 1917-yilga kelib, Rossiya imperatsiyasida advokatura institut tarkibida 13 mingga yaqin odam, shu jumladan, 57 ming advokat, 5,5 ming advokat yordamchilari, 2 ming xususiy advokatlar faoliyat olib borgan. 1992-yildan Rossiya Federatsiyasi advokaturasini tashkil etish jarayoni hisoblanadi. XX asrning 90 yillari mobaynida va hozirgi amalda bo‘lgan “Advokatura to‘g‘risida”gi Federal qonun qabul qilingan 2002-yilga qadar RSFSRning Advokatura to‘g‘risidagi 1980-yil 20-noyabr Nizomi biror-bir o‘zgarish va qo‘shimchalarsiz amal qilib keldi.2002-

yil 1-iyuldan Rossiyada advokatura 2002-yil -1 mayda qabul qilingan “Rossiya Federasiyasida advokatlik faoliyati hamda advokatura to‘g‘risida”gi 63-FZ-sonli federal qonun bilan tartibga solinib, 2003-yil, 2004-yillarda qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Amaldagi Federal qonunda Rossiyaning advokaturaga doir qonunchiligida birinchi marta advokatlik faoliyai advokat va advokatura tushunchalariga ta’rif berilgan.

Advokatlik faoliyati – qonunda belgilangan tartibda advokatlik maqomini olgan shaxslar tomonidan ishonch bildiruvchilar – jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini ta’minlash maqsadida professional asosda ko‘rsatiladigan malakali yuridik yordam. Rossiyada oliy kasb-hunar ta’limining davlat tomonidan akkreditatsiya qilingan ta’lim muassasasida olingan oliy yuridik ma’lumotga yoki yuridik ixtisoslik bo‘yicha ilmiy darajaga ega bo‘lgan shaxs advokat maqomini olishga haqlidir. Bu shaxs yuridik ixtisoslik bo‘yicha kamida ikki yil mehnat stajiga ega bo‘lishi yoki kamida 5 yil advokatlik stajiga ega bo‘lgan advokat rahbarligida 1 yildan 2 yilgacha stajirovkadan o‘tgan bo‘lishi lozim. Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, shuningdek, qasddan jinoyat sodir etganlik uchun sudlanganligi bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar advokat maqomini olish va advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishga da’vogar bo‘lishga haqli emas. Shuningdek, chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar Rossiyada Rossiya fuqarolari bilan umumiy asosda advokat maqomini olishi mumkin faqat, ular Rossiya Federasiyasi hududida mazkur chet davlat huquqi masalalari yuzasidan ular Rossiya Adliya vazirligida maxsus reyesterda ro‘yxatga olingan bo‘lish lozim. Ammo chet davlatlarning advokatlari Rossiya Federatsiyasi hududida Rossiya Federasiyasining davlat siri bilan bog‘liq masalalar yuzasidan yuridik yordam ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Advokat maqomini berish to‘g‘risidagi qarorni Rossiya Federatsiyasi subyekti advokatlari palatasining malaka komissiyasi advokat maqomini olishga da’vogar shaxs savollarga yozma javob berish (test topshirish) hamda og‘zaki savollarga javob berish yo‘li bilan advokatlik maqomini egallaydi hamda qasamyod qabul qiladi.

Advokat yordamchilariga ega bo‘lishga haqli, ular oliy, tugallanmagan oliy yoki o‘rta yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan, muomalaga layoqatli va advokatlik sirini saqlashga majbur bo‘ladi. Advokatlari hay’ati va advokatlik byurosi, advokatlik kabinetlari, yuridik maslahatxonalar mavjud. Shu o‘rinda advokat kabineti yuridik shaxs hisoblanmaydi, kabinetda ishlaydigan advokat

banklarda o'z hisob varag'ini ochishga, advokat kabinetining manzili va nomi ko'rsatilgan shtamplar va blankalarga ega bo'lishiga haqli.

Advokat kabineti advokat uyi yoki uning oila a'zolariga mulk huquqida tegishli bo'lgan joyda joylashishi mumkin. Yuridik maslahatxonalar bir federal sudyaga kamiga ikkita advokat to'g'ri keladigan tumanlarda tashkil etish mumkin. Rossiya Federatsiyasi advokatlar Federal palatasining oliy organi har 2 yilda kamida bir marta chaqiriladigan Butunrossiya advokatlar syezdi hisoblanadi. 2003-yil 31-yanvarda I syezd, 2005-yil 8-9 aprel kunlari esa II syezdi bo'lib o'tgan.

Rossiya advokatlari quyidagi hollarda fuqarolarga bepul yuridik yordam ko'rsatishi shart hisoblanadi:

- Da'vogarlarga – birinchi instansiya sudlarida ko'rilayotgan alimentlar undirish, qarovchisining o'limi. Mehnat faoliyati bilan bog'liq jarohatlanish yoki sog'lig'ining boshqacha shikastlanish munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi ishlar bo'yicha.

- Ulug' Vatan urushi faxriylariga – tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan masalalar bo'yicha; Rossiya Federatsiyasi fuqarolariga – pensiyalar va nafaqalar tayinlash to'g'risida arizalar yozishda.

- Siyosiy qatag'onlardan jabrlangan Rossiya Federatsiyasi fuqarolariga – reabilitatsiya qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan.

- Voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va huquqbuzarliklarning oldini olish muassasalarida saqlanayotgan voyaga yetmagan shaxslarga yuridik yordam barcha hollarda bepul xizmat ko'rsatiladi.

2. Fransiya advokatura tizimi Fransiya advokaturasi tizimi "Advokatlik faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Dekret hamda Milliy advokatura kengashi tomonidan qabul qilingan Nizom asosida faoliyat yuritadi." Advokatlik faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Dekretning birinchi bo'limi advokatura idoralarini tashkil etish va ma'muriy jihatdan tartibga solishga bag'ishlangan 15 ta moddani o'z ichiga olgan mazkur bo'limning birinchi qismida advokaturani tashkil etish shart-sharoitini, bir necha advokatlik tuzilmalarining yagona bo'lib birlashishi imkoniyatlarini, ularning rahbarlik idoralari (ma'muriy kengash) shakllanishi va tuzilishi tartibini, advokatlik tuzilmalari rahbarlarining vazifalari, saylov, mandat muddatini belgilab beradi. Ikkinchi qismida esa, professional advokatlik tashkilotlarining rahbar organi – milliy advokatura kengashining tarkibi hamda faoliyati bayon etilgan. Advokatlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogliq shartlar 111-128-moddalarda qayd etilgan. Ularda advokatning shugullanishi mumkin bo'lgan va bo'lmagan faoliyat turlari (masalan, oliy o'quv yurtlarida dars berish, sud idoralarida ijtimoiy sugurta ishlarini hal qilish bo'yicha a'zolik, tijorat ishlari bilan shugullanmaslik va boshqalar)

belgilangan. Shuningdek, advokatlar o'rtasidagi hamkorlik masalalari advokatlar tomonidan tuziladigan «ish» shartnomalari, unga rioya qilish shartlari va tartibi z o' ifodasini topgan. Mazkur Dekretning 3-b o'limi advokatning o'z faoliyatida qat'iy ravishda rioya qilishi kerak blgo'an advokatlik professional qoidalarni o'z ichiga olgan. Masalan, 115-moddada k o'rsatilishicha, advokat bitta va aynan o'sha ish k o'rib chiqilayotanda bir nafardan ortiq mijozga vakil kam, maslakatchi ham, himoyachi ham b o'lishi mumkin emas. U (advokat) agar uning avvalgi mijozi tomoiidan taqdim etilgan maxfiy ma'lumotlarni fosh etish uchun tavakkalchilik mavjud bo'lsa, yangi mijozning ishni olib borishga rozilik bermasligi lozim.

Shuningdek, mazkur bli o'mda ilgari boshlangan ishni nihoyasiga yetkazish uchun va'ltinchalik almashtirish yoki yangi advokatni tayinlash (favkulodda vaziyatlar blg o'anda) tartibi ham bayon etilgan. Fransiyaning Milliy advokatura kengashi advokatlarning barcha professional tashkilotlarining muvofiqlashtiruvchi idorasi hisoblanadi. Kengash o'zining 1999- yil 26-27 mart kunlari o'blib o' tgan bosh assambleyasida tashkilotning ichki reglamentlari t'hrisidagi umumiy Nizomni qabul qildi. Mazkur Nizom hozirgi vaqtda Fransiya advokatlari amal qiladigan qoidalar tizimining asosini tashkil etadi. U advokatlik qoidalari, uning ish faoliyati qamrovi, maqomi, advokatlar va ularning tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bah'ishlangan bir necha bo'limlardan iborat. Xususan, «Tamoyillar» bo'limida advokat kasbining tushunchasi, faoliyat asoslari va kasbga munosabat va kasb egalari tomonidan kasbiy maxfiylikka rioya qlinish masalasini qamrab olgani bilan e'tiborlidir. Jumladan, unda kasbiy maxfiylikka kiradigan yoki unga mansub bo'lmagan belgi-kolatlar hamda faoliyat turlari belgilangan. 8-9-moddalar advokatning mijozi bilan tuziladigan shartnomalarning tartibi, qoidalari va imkoniyatlarini belgilab beradi. Bundan tashqari, bu yerda advokatni uning hamkasbi bilan almashtirish e'ktimoli bilan bogli' qoidalar va ehtimol tutilgan holatlar to'grisida eslatib 'tiladi. Alohida modda (10) advokatning 'z faoliyatini reklama qlish (ommaviy axborot vositalari, internetda) qoidalariga mos keladigan usullariga, shu maqsadda ularning kollokviumlar, o'quv-amaliy mashg'ulotlarini tashkil etishga, advokatlarning o'z sohasidagi ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarda ishtirok etishga bag'ishlangan. Mazkur moddada advokatning ism-sharifi va uning unvoni hamda faoliyatiga daxldor boshqa ma'lumotlar yozib ilib q o'yilishi (ish xonasining eshigiga) tartib-qoidalari ham aks etgan.

Uchinchi qism (14,15,16-moddalar) advokatlik faoliyatining tashkiliy xususiyatini ifodalaydi. Unda, jumladan, ish shartnomalari yoki bir guru'ga mansub advokatlar o'rtasidagi hamkorlik shartnomalarini imzolash shartlari,

ish shartnomasi t o'xtalishining tartibi yoki advokatning ishdan b o'shatilishi, ishlarni olib borish qoidalari va bir guruġga mansub advokatlar tomonidan mijozlar manfaatlarini takdim etish, Fransiya hududida va xorijiy mamlakatlarda "ikkinchi darajali" advokatlik mahkamalari (filiallari)ni tashkil etish va ochish aks etgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur Nizom Yevropa Ittfoqi advokatlarining deontologik kodeksini ham o'z ichiga oladi. 1998-yilda Strasburgda Yevropa advokatlik tashkilotlarining Maslakat kengashi tomondan qabul qilingan bu kodeks 12-moddada o'z ifodasini topgan. Qoidaga ko'ra, mamlakatning barcha advokatlari o'z faoliyatparini Yevropa Ittifoqi) doiralarida, Fransiya Respublikasi hududidan tashqarida olib borganlarida mazkur kodeks me'yorlariga amal qilishi kerak.

3. Angliya davlatida advokatura faoliyati

Angliya huquq tizimidagi advokaturaning tuzilishi va advokatning vakolatlarini o'rganishning ahamiyati shundaki, dunyoda bironta mamlakat Angliya singari advokatlarning vakolatlari va tuzilish tartibi bir-biridan keskin farq qiluvchi, bir vaqtda yonma-yon faoliyat olib boruvchi ikki tizimdan iborat advokatura tuzilishiga ega emas. Bu mamlakatda advokatlar huquq himoyachilari deb atalib, ular ikki guruhga, ya'ni solisitorlar va barristerlarga bo'linadi. Advokatlarning guruhlarga bo'linishi XIV asrda ro'y bergan va deyarli yetti asrdan buyon ularning vazifalari orasidagi farqlar qonun bilan tartibga solinib kelinmoqda. Advokat-barristerning faoliyat turlaridan biri huquqiy xarakterdagi hujjatlarni tuzish va yuridik maslahatlar berish. Shuningdek, ular deyarli barcha sud bosqichlarining ma'lum jarayonlarida ba'zan advokat sifatida, ayrim hollarda prokuror sifatida ishtirok etishlari mumkin. Barcha sud jarayonlaridan tashqari Lordlar Palatasi, Maxfiy Kengashning sud qo'mitasi, Apellyatsiya va yuqori sudlarda faqat advokat-barristerlar qatnashishi mumkin bo'lib, bunday huquq yaqin-yaqingacha advokat-sollisitorga berilmagan edi. Shuningdek, advokat-barristerlar bankrot ishlari bo'yicha dastlabki hujjatlarni yig'ishda, ularni sudlarda ko'rib chiqishda ishtirok etishi mumkin bo'lmasa, advokat-sollisitorlarga bunday huquq berilgan. Umuman, Angliya sud tizimining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, muayyan turkumdagi ishlarni ko'rib chiqishda taraflar tomonidan, hattoki ayblovni qo'llash bo'yicha ham advokat-barristerning ishtiroki shart hisoblanadi. Shuningdek, Apellyatsiya sudining qarori ustidan Lordlar Palatasiga shikoyat qilish uchun ikkita barristerning imzosi talab qilinadi. Barrister sudya lavozimiga saylanish

uchun imtiyozli huquqlarga ega. Lord-kansler, general attorner va general solisitor lavozimlari har doim barristerlar tomonidan egallanadi.

Bundan tashqari, barrister solisitoridan farqli o'laroq, sud xizmatchisi hisoblanmaydi, unig faoliyati sudlar tomonidan qattiq nazorat qilinmaydi, biroq solisitor singari sudga hurmatsizlik qilganda jarimaga solinishi yoki ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin.

Anglya va Uelsda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi barrister va solisitorlarning alohida-alohida birlashmalari bo'lib, ular bir-biriga bo'ysunmasdan o'z a'zolarining ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Barristerlar birlashmasi ularning boshqaruv organlari hisoblanadilar va o'z advokatlariga nisbatan ma'muriy-intizomiz vakolatlarni amalga oshiradi. Mazkur birlashmaga a'zo bo'lishga talabgor Anglya fuqarosi 21 yoshdan oshgan, sakkiz semester davomida huquq sohasi bo'yicha shug'ullangan va bitiruv imtihonini topshirgan hamda a'zolikka kirish badallarini to'lagan bo'lishi kerak.

Barristerlar birlashmasining boshqaruv organi Senat deb nomlanadi. Senat a'zolarining soni 90 kishiga mo'ljallangan bo'lib, general attorney, general-solisiter, huquqiy maorif kengashi raisi, yigirma to'rt nafar sudya, universitet kollejlarning vakillaridan 12 kishi, birlashma bo'yicha barristerlardan 39 vakil va 12 kishidan ortiq bo'lmagan qo'shimcha a'zoldan iborat. Senat barristerlar birlashmasi nomidan qaror qabul qiladi, birlashmaga o'quvchilar (stajyor advokatlar) va barristerlarni qabul qilish bo'yicha ko'rsatma beradi, kasbiy malaka oshirish va barristerlarga nisbatan ba'zi intizomiy choralarni amalga oshiradi. Solisitorlar asosan advokatlik faoliyatiga oid hujjatlarni tayyorlash va dalillarni to'plash bo'yicha ish olib borishadi. Binobarin, solisitorlar guvohlarni so'rash, ishga taalluqli hujjatlarni sud jarayonining muayyan bosqichiga tayyorlab berish uchun buyruqlar berish bilan shug'ullanadilar. Solisitorlarning bevosita sudda ishtirok etish huquqi barristerlarnikidan farqli ularoq, cheklangan bo'lib, ular faqat graflik va magistrat sudlarida va ayrim hollarida Korona Sudlarining majlislarida hamda ba'zi tribunallarda, bankrotlik ishlari ko'riladigan yuqori sudlarda qatnashish huquqiga egadirlar. 1581 solisitor esa Qirollik prokuror xizmatida jinoyat ishlari bo'yicha magistrat sudlarida politsiya nomidan ayblovchi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bundan tashqari solisitorlar sudga taalluqli bo'lmagan, masalan, vasiyatnoma tuzish, ishonchnoma orqali mulkni boshqarish ustidan kuzatish, meros mulkni boshqarish yuzasidan dalolatnoma, ko'chmas mulk bo'yicha notarial bitimlarni tuzish kabi masalalarni ko'rib chiqishadi. Solisitor hamkor sifatida turli jamiyatlarga kirishi mumkin bo'lsa, barristerga bu harakat taqiqlanadi. Shuningdek, solisitor mijoz bilan shartnoma asosida bajarilayotgan ish uchun sud orqali

mijozdan xizmat haqi talab qilishga haqlidir. Barrister bunday haqni talab qila olmaydi, chunki ular mijozga shartnoma emas, balki gonorar asosida xizmat ko'rsatgan hisoblanadi. Ular orasidagi farqlar kiyinishda ham ko'zga tashlanadi. Barrister uchun magistrat sudlaridan tashqari barcha sudlarda parik va mantiyada yurishi shart bo'lib hisoblanadi, solisitorlar esa ba'zi sudlarda, jumladan, Graflik sudida faqat mantiya kiyib ishtirok etadilar. Shuningdek, ular orasidagi farq mijozdan topshiriq olishda namoyon bo'ladi. Zeroki, solisitorlarga ishga qatnashish haqida topshiriqni bevosita mijozning o'zi beradi, barristerga esa bunday topshiriq solisitor orqali beriladi. Solisitorlarning nazorat qiluvchi organi "Yuridik jamiyat" hisoblanadi. Jamiyat 1845 yili Qirolli xartiyasiga asosan tashkil etilgan, keyinchalik bu xartiyaga o'zgartirishlar kiritilib borilgan. Jamiyatga a'zo bo'lishni istagan shaxslar birinchi navbatda Jamiyatning sertifikatini olishi va solisitor bo'lib ishlash uchun shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Jamiyat sertifikati yuridik ma'lumotga ega, bitiruv imtihonlarini topshirgan hamda shartnomaviy amaliyotni (stajirovka) muvaffaqiyatli o'tagan shaxslarga beriladi. Mazkur jamiyatga xorijlik yuristlarning a'zo bo'lishiga yo'l quyiladi va ular quyidagi talblarga javob berishlari lozim:

hukumatga qarashli bo'lmagan (nodavlat, notijorat, jamoat muassasasi) tashkilotda faoliyat ko'rsatayotgan bo'lishi; u ishlayotgan tashkilotning kasb axloq kodeksi (qoidalari) mavjud bo'lishi; mazkur tashkilot o'z a'zolariga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli bo'lishi; ushbu tashkilotda o'z xodimlarining kasb mahoratini uzluksiz oshirish bilan shug'ullanish (bir kishiga nisbatan har yili 48 soatdan kam bo'lmagan muddat davomida) tizimining mavjudligi. Angliya davlatida faoliyat ko'rsatayotgan advokatlarning huquq va majburiyatlari, ya'ni vakolatlar doirasi murakkab bo'lib, advokat, bir tomondan, davlat yoki sud xizmatchisi, ikkinchi tomondan, jismoniy hamda yuridik shaxslarning manfaatlarini dastlabki tergov va sudlarda himoya qiladigan jamoatchilik vakili vazifalarini bajaradi.

1.3.2-a Blis-so'rov bo'yicha savollar;

1. Rossiyada nechanchi yil advokaturani tashkil topganligini 140 yilligi keng nishonlangan?

2. Advokat kasbining tushunchasi, faoliyat asoslarining kasbga munosabat va kasb egalari tomonidan kasbiy maxfiylikka rioya qilinish masalalari qaysi huquqiy hujjatda belgilab berilgan?

3. Fransiya advokaturasi tizimi qaysi huquqiy hujjatlar asosida o'z faoliyatini olib boradi ?

4. Angliya fuqarosi necha yoshida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishi

mumkin ?

5. Solisitorlarning bevosita sudda ishtirok etishda barristerlarnikidan farqli o'laroq qaysi huquqlari cheklangan ?

6. "Yuridik jamiyat" nechanchi yili Qirolli xartiyasiga asosan tashkil etilgan?

7. Advokat-barristerning faoliyat turlaridan qaysilarini bilasiz?

1.3.2-b. Og'zaki nazorat uchun savollar

1. Rossiya Federatsiyasining advokaturasi nechanchi yildan boshlab faoliyat ko'rsatib kelmoqda?

2. Rossiya Federatsiyasi advokatlari Federal palatasining oliy organi har necha yilda chaqiriladi?

3. Angliyada advokatlarning guruhlariga bo'linishi qaysi asrdan boshlab, ularning vazifalari orasidagi farqlar qonun bilan tartibga solinib kelinmoqda?

4. Apellyatsiya sudining qarori ustidan Lordlar Palatasiga shikoyat qilish tartibi qanday amalga oshiriladi?

5. Solisitorlarga ishga qatnashish haqida topshiriq kim tomonidan belgilanadi?

6. Fransiyaning Milliy advokatura kengashi idorasi qachon tashkil etilgan?

1.3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

• **Takrorlash va mashqlar:** qaytarish, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta tayyorgarlik ko'rish, eslab qolish;

• **Yangi materiallarning mustaqil asosi;** yangi adabiyotlar, Internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar tuzish.

• **Ilmiy xarakterdagi ishlar:** muammoli vaziyatlar, testlar, savollar, topshiriq va slaydlar tuzish.

1.3.4. Topshiriq kartochkalari uchun testlar

1. Barristerlar birlashmasining boshqaruv organi qanday nomlanadi

A) barristerlar birlashmasining boshqaruv organi Senat deb nomlanadi;

B) barristerlar birlashmasining boshqaruv organi yuqori sud deb nomlanadi;

C) barristerlar birlashmasining boshqaruv organi Qirollik deb nomlanadi;

D) barristerlar birlashmasining boshqaruv organi huquqni muhofaza qiluvchi organ deb nomlanadi.

2. Apellyatsiya sudining qarori ustidan Lordlar Palatasiga shikoyat qilish uchun nechta barristerning imzosi talab qilinadi

A) apellyatsiya sudining qarori ustidan Lordlar Palatasiga shikoyat qilish uchun ikkita barristerning imzosi talab qilinadi.

B) apellyatsiya sudining qarori ustidan Lordlar Palatasiga shikoyat qilish uchun oltita barristerning imzosi talab qilinadi.

C) apellyatsiya sudining qarori ustidan Lordlar Palatasiga shikoyat qilish uchun uchta barristerning imzosi talab qilinadi.

D) apellyatsiya sudining qarori ustidan Lordlar Palatasiga shikoyat qilish uchun umuman barristerning imzosi talab qilinmaydi.

3. Fransiya advokaturasi tizimi “Advokatlik faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Dekret birinchi bo‘limida nimalar belgilab berilgan?

A) advokatura idoralarini tashkil etish va ma‘muriy jihatdan tartibga solishga bag‘ishlangan;

B) ma‘muriy jihatdan tartibga solish, ijtimoiy himoyaga bag‘ishlangan;

C) ijtimoiy himoya, advokatura idoralarini tashkil etishga bag‘ishlangan;

D) ma‘muriy jihatdan tartibga solish, advokatning mehnat ta‘tiliga chiqishiga bag‘ishlangan.

4. Rossiya advokatlari qaysi hollarda fuqarolarga bepul yuridik yordam ko‘rsatishi shart hisoblanadi

A) davogarlariga birinchi instansiya sudlarida ko‘rilayotgan alimentlar undirish, qarovchisining o‘limi, ulug‘ Vatan urushi faxriylariga, tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan masalalar bo‘yicha;

B) Rossiya Federatsiyasi fuqarolariga, pensiyalar va nafaqalar tayinlash to‘g‘risida arizalar yozishda, voyaga yetmagan shaxslarga yuridik yordam barcha hollarda bepul xizmat ko‘rsatiladi.

C) siyosiy qatag‘onlardan jabrlangan Rossiya Federatsiyasi fuqarolariga – reabilitatsiya qilish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan;

D) barcha javoblar to‘g‘ri.

5. Rossiyada qanday kishilar advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin

A) advokat yuridik ixtisoslik bo'yicha kamida ikki yil mehnat stajiga ega bo'lishi yoki kamida 5 yil advokatlik stajiga ega bo'lgan advokat rahbarligida 1 yildan 2 yilgacha stajirovkadan o'tgan bo'lishi lozim.;

B) yuridik ixtisoslik bo'yicha kamida bir yil mehnat stajiga ega bo'lishi yoki kamida 5 yil advokatlik stajiga ega bo'lgan advokat rahbarligida 6 oydan 1 yilgacha stajirovkadan o'tgan bo'lishi lozim.;

C) yuridik ixtisoslik bo'yicha kamida uch yil mehnat stajiga ega bo'lishi yoki kamida 5 yil advokatlik stajiga ega bo'lgan advokat rahbarligida 1,5 yildan 2 yilgacha stajirovkadan o'tgan bo'lishi lozim;

D) tugallanmagan oliy ma'lumotli, Rossiya fuqarosi, kamida ikki yil mehnat stajiga ega bo'lishi lozim.

1.3.6.Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1.Karimov I.A. “Adolat – qonun ustuvorligida” Xalq so‘zi. 2001 yil 30 avgust.

2.Karimov I.A. Inson, uning huquqlari va erkinliklari, manfaatlari – oliy qadriyat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinganligining 13 yilligiga bag‘ishlangan tantanali ma’rosimda qilgan ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 10- dekabr 2005.

3.O‘zbekiston Respublikasida Advokatlik faoliyati. Darslik. Ikki jildli, mualliflar jamoasi. “Konsaudininform” nashri, -T., 2007 .

4. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni. - T.: 26 -dekabr1996.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy huquqlari to‘g‘risida”gi qonuni, -T.: 26 -dekabr 1997.

Qo‘shimcha adabiyotlar

6. Рустамбаев М.Х., Никифорова Е.Н. Правоохранительные органы. Учебник – Т.: ТДЮИ, 2003 г.

7.Salomov B. O‘zbekistonda advokatlik faoliyati. T.: “Adolat”, 2000 y.

8. Уголовный процесс. Общая часть (под общей редакцией доц.Никифоровой Е.Н.) Т.: «Адолат», 2000.

9.Sharofiddinov A.O.Eng muhim-himoya huquqi.Advokat jurnali, 2003 №2 **10.To‘laganova G.** Jinoyat prosessida himoyachining ishtiroki. O‘quv qo‘llanma. T.: TDYuI, 2005.

1.3.7. Internet manbalari

1.<http://www.zakon.ru>

2.<http://www.narod.ru>

3.<http://www.advokat.ru>

1.4. O‘qitishning uslubiy qoidalari

1.4.1. “Zigzag” № 1

“Zigzag” № 1-hamkorlikda o‘qitish uslubi.

“Zigzag”jadvali:

1. Talabalar, matn katta, kichikligiga qarab (matn qismlarga bo‘lingan), 4-6 talaba bo‘lib komandalarga bo‘linadilar.

2. Material o‘rganish uchun taqsimlanadi, har bir talaba o‘zining matndagi qismini o‘rganadi (birinchi talaba, birinchi qismini, ikkinchi talaba, ikkinchi qismini va h.k.)

3. Yangi guruhda materialni tushuntirish uchun yagona o‘quv jarayonini boshqarish mahorati ishlab chiqish maqsadida talabalar o‘z raqamlari asosida yangi guruhlarga bo‘linishadi.

4. Talabalar oldingi o‘z komandalariga materialni tushuntirish uchun qaytadilar. Komandaning vazifasi: har bir talaba o‘z mavzusini to‘liq tushuntira olishi kerak.

5. Ba’zi bir guruh a’zolari o‘z bilimlarini namoyish qilib berishlari mumkin.

“Zigzag” № 2

“Zigzag” № 2- Zigzag-№1 usulidan farqi shundaki, bunda talabalar matn qisminigina emas, balki to‘liq matnni o‘rganadilar, lekin tegishli savollar bo‘yicha ekspertlar bo‘ladi. Talabalar tarqatilgan matnni o‘qish jarayonida, ekspertlar tomonidan berilgan savollarga javoblar topib beradilar.

1.4.2. Kichik guruhlarda ishlash

• Har bir talaba o‘z o‘rtog‘i fikrini eshitishi, hurmat va xushmuomalada bo‘lishi;

• Har bir talaba faol ishtirok etishi, berilgan topshiriqqa nisbatan mas’uliyatli va javobgarlikni his qilishi lozim;

• Har kimga yordam ko‘rsatish kerak, qaysikim u yordamga muhtoj bo‘lsa;

• Guruh ishiga baho berish jarayonida har bir talaba faol ishtirok etishi lozim.

• O‘zgaga yordam berib o‘zimiz ham o‘rganishimiz mumkinligini har bir oquvchi- talaba bilishi kerak.(birgalikda bajaramiz yoki hammamiz yutqazamiz)

МУҲДАРИЖА

1- mavzu: «O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKATURA»	
FANINING TUSHUNCHASI VA TIZIMI.....	3
2-mavzu: JINOYAT PROTSESSIDA ADVOKAT FAOLIYATI.....	17
3-Mavzu: SUD MAJLISIDA ADVOKATNING ISHTIROKI.....	31
4- mavzu. SUD QARORLARI YUZASIDAN SHIKOYAT.....	44
5- mavzu. XORIJIY DAVLATLARDA ADVOKATURA.....	57

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKATURA

*5380100- huquqshunoslik bakalavr yo‘nalishida ta’lim oluvchilar uchun
(Uslubiy qo‘llanma)*

Tuzuvchilar: *Sh.H.HAMRAYEVA
R.T.TO‘RAYEVA*

Muharrir **Z.Xurramova**

Musahhih **M.Ro‘ziboyev**

Tex.muharrir **O.Arnst**

*17.02.2009 yilda bosishga ruxsat etildi.
№ 392 buyurtma, 4,5 bosma taboq,
hajmi 60x84 1,16. Adadi 100 nusxa*

*SamDU bosmaxonasida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.*